

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
JISMONIY TARBIYA VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI  
ILMIY-METODIK TA‘MINLASH, QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**



**2.3.**

**“SPORT TA‘LIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALAR”**

**MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUUA**

**Malaka oshirish  
yo‘nalishi:**

**Tinglovchilar  
kontingenti:**

**Sport turlari bo‘yicha  
trener-o‘qituvchi**

**Sport ta‘lim muassasalari  
trener-o‘qituvchilari**

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan 2021-yil 4-yanvarda tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va o‘quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**

- O.E. Hayitov - Markazning “Pedagogika va psixologiya” kafedrası professori v.b., p.f.d., dots.
- J.A. Pulatov - Markazning “Pedagogika va psixologiya” kafedrası mudiri
- N.E. Yuldashyeva - Farg‘ona filial “Pedagogika va psixologiya” kafedrası mudiri

**Taqrizchilar:**

- D.I. Muqimova - TIQXMMI “Pedagogika, psixologiyasi va o‘qitish metodikasi” kafedrası dotsenti, PhD.
- A.A. Akmalov - Markazning “Pedagogika va psixologiya” kafedrası professori v.b., p.f.n., dots.

*Ushbu o‘quv-uslubiy majmua “Pedagogika va psixologiya” kafedrasining 2021 yil 4-yanvardagi 1-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqildi va Markaz Ilimiy Kengashning 20\_\_yilida \_\_ -----da o‘tkazilgan \_ sonli qarori bilan nashr tavsiya qilingan.*

**MUNDARIJA**

- I. Ishchi dastur**
- II. Modulni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari**
- III. Nazariy materiallar**
- IV. Amaliy mashg'ulot materiallari**
- V. Keyslar banki**
- VI. Testlar to'plami**
- VII Glossariy**
- VII Adabiyotlar ro'yxati**



## **ISHCHI DASTUR**

## KIRISH

Milliy tiklanish yillari tom ma'noda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarda yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda.

**O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida "...sport sohasida boshqa zamonaviy usullar va yo'nalishlarni joriy etish ... zamonaviy sport texnologiyalarini hisobga olgan holda sport turlari bo'yicha sport maktablarining o'quv-mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish"** kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. SHu bois, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida sport turlari bo'yicha trenerlarining intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida "Sport ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar" o'quv modulining o'qitilayotganligi trener-o'qituvchilarni zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarining tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlaridan xabardor bo'lishlari uchun sharoit yaratib, trenerlik kasbiy faoliyatida ulardan samarali foydalanish borasidagi malakalarining mustahkamlanishini ham ta'minlaydi.

Ayni vaqtda "Sport ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar" o'quv moduli jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetentlik sifatlarini yanada rivojlantirish, keng ko'lamli sportda tizimli tahlilni olib borish, kuchli raqobat mavjud bo'lgan xizmatlar bozorida o'z o'rinlarini saqlab qolishlariga yordam beradi.

O'quv moduli doirasida tinglovchilar innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, muhim asoslari bilan tanishadi, trenerlik kasbiy faoliyatida pedagogik texnologiyalarni samarali, maqsadli qo'llash malakalariga ega bo'ladi, o'quv-mashg'ulot jarayonini oqilona loyihalashtirishga doir tajribalarini yanada boyitadi.

Shuningdek, tinglovchilar pedagogik innovatsiyalarni asoslash, yaratish va amaliyotga samarali tadbiiq etish yo'llaridan xabaror bo'ladi, innovatsion xarakterga ega mualliflik dasturlarini ishlab chiqish malakalarini muvaffaqiyatli o'zlashtiradi. Bu esa o'z navbatida o'quv-mashg'ulot jarayonida sportchilarning faolliklarini ta'minlash, o'quv-mashg'ulot sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Modulning maqsad va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** malaka oshirish kurs tinglovchilarini sport mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalariga doir bilimlarini o'zlashtirish va takomillashtirish, sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, amaliyotida qo'llash va yaratish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

**Modulning vazifasi:**

“Sport turlari bo'yicha trener-o'qituvchi” malaka oshirish yo'nalishida:  
sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion pedagogik innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'ziga xosliklari va qo'llanilish sohalari aniqlashtirish;  
sport maktablarida ta'lim-tarbiya masalalari bo'yicha innovatsion pedagogik texnologiyalarining kontseptual asoslari, ilg'or ta'lim texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash bo'yicha tinglovchilarni bilim, ko'nikma va malakasini rivojlantirish;  
tinglovchilar sport mashg'ulotlarini samaradorligini oshirishda interfaol usullar va texnologiyalardan maqsadga mos ravishda foydalanish va qo'llash ko'nikma shakllantirish;  
sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari va tinglovchilarda ularni qo'llash mahoratini shakllantirish.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar:**

“Sport ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar” kursini o'zlashtirish jarayonida tinglovchilarning egallagan *bilim* doirasida:

**Tinglovchi:**

sport yo'nalishdagi nazariy va amaliy mashg'ulotlarda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, maqsadi va vazifalari;  
pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi asosiy farqlari;  
innovatsion pedagogik texnologiyalarining turlari va qo'llanilish sohalari;  
sport mashg'ulotlarda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning pedagogik-psixologik va metodik shart-sharoitlari haqida bilimlarga ega bo'lishi;  
interfaol metodlarni sport mashg'ulotiga maqsadga muvofiq tanlash va qo'llash;  
ta'lim texnologiyasi turlarini bir-biridan farqlay olish;  
interfaol ta'lim metodlarini sport ta'limi jarayoniga tatbiq eta olish;  
interfaol ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va ularning pedagogik jarayonda qo'llay olish:

“Sport ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar” modulini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini *egallashi*;

Tinglovchi:

ta'limning tashkiliy shakllari – ta'lim texnologiyasining tarkibiy qismi ekanligini tushuntirib,

mohiyatini aytib bera olish;  
interfaol ta'lim metodlari va vositalaridan kasbiy faoliyatda foydalana olish;  
interfaol usullar va ta'lim texnologiyalarini ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish  
ko'nikmalarini egallashi;  
sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayonini  
"jonli", ijodiy tashkil etish;  
sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion faoliyatni tashkil etish;  
sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion pedagogik texnologiyalarining oqilona tanlab  
olish;

**"Sport ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar"** moduli bo'yicha quyidagi  
**malakalarini** egallashi;

Tinglovchi:

mutaxassislik bilan bog'liqlikda innovatsion pedagogik texnologiyalarini real amaliyot bilan  
uyg'unlashtirishga erishish;  
sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va  
ommalashtirish malakalarini egallashi;  
interfaol ta'lim metodlarini o'quv jarayoniga tatbiq eta olish;  
sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion pedagogik muhitini boshqarish;  
innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;  
interfaol usullar va ilg'or ta'lim texnologiyalar orqali sportchilarda jamoviy harakat malakalarini  
rivojlantirish;  
muammoli ta'lim texnologiyalar orqali sport mashg'ulotlarida sportchilarda muammoli  
vaziyatlardan chiqish qobiliyatini rivojlantirish, sportchilar mashg'ulotlarga innovatsion, kreativ  
yondoshuv qobiliyatlarini shakllantirish **kompetentsiyalarni** egallashi lozim.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan o'zaro bog'liqligi va uzviyligi**

"Sport ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar" moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv  
rejasidagi "Trener-o'qituvchining professional kompetentligi va mahorati", "Sport ta'limi sifatini  
ta'minlashda xorijiy tajribalar", "Sport pedagogik mahoratini oshirish" va "Sport mashg'uloti  
nazariyasi va uslubiyoti" o'quv modullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### **Modulning sport ta'limidagi o'rni**

Ushbu modul pedagogika fanining boshqa amaliy sohalaridan tubdan farq  
qilib, unda sport ta'limida o'quv-trenerovka va o'quv-yig'in jarayonida  
qo'llaniladigan zamonaviy innovatsion texnologiyalar asoslariga oid xorijiy  
tajribalar, zamonaviy yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlar haqida ma'lumotlar  
beriladi. Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar sport ta'limida pedagogik  
muammolarni aniqlash zamonaviy usullariga doir kasbiy malakalarini yanada  
takomillashtiradilar.

**Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:**

T/r	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soatlari					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jumladan				
			Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot	
1.	Sport mashg'ulotlarini o'tkazishda pedagogik innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	2	2	2			
2.	Muammoli ta'lim texnologiyalari va ularni sport mashg'ulotlarda qo'llash	2	2		2		
3.	Sport mashg'ulotlarini samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning o'rni va imkoniyatlari	2	2		2		
	<b>Jami:</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	<b>4</b>		

**NAZARIY TA'LIM MAZMUNI**

**1-mavzu. Sport mashg'ulotlarini o'tkazishda pedagogik innovatsion texnologiyalarining ahamiyati**

**Reja:**

1. Sportda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari.
2. Pedagogik innovatsiyalar va ularni sport ta'limi jarayoniga qo'llash.
3. Sportdagi zamonaviy innovatsion texnologiyalar: eng yaxshi o'ntalik.

O'zbekiston Respublikasida sport ta'limi tizimidagi innovatsion o'zgarishlar. Sportda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari.

Innovatsiya, innovatsion jarayon, innovatsion ta'lim, "Innovatsiya" va "novatsiya" tushunchalarining bir-biridan farqi. Innovatsion ta'lim va ta'lim innovatsiyalari. Ta'lim innovatsiyalarining asosiy turlari. Trener-o'qituvchining



innovatsion faoliyati. Pedagogik innovatsiya yo'nalishlari. Inovatsiya joriy etish bosqichlari. Pedagogik texnologiya va uning tamoyillari. Pedagogik texnologiya ko'rinishlari.

Sportda ta'lim jarayonini loyihalashtirish bosqichlari. Sportdagi zamonaviy innovatsion texnologiyalar: eng yaxshi o'ntalik.

### **AMALIY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI**

#### **2-mavzu. Muammoli ta'lim texnologiyalari va ularni sport mashg'ulotlarda qo'llash**

##### **Reja:**

1. Muammoli ta'lim haqida tushuncha va muammoli ta'lim texnologiyalarining o'quv-trenerovka mashg'ulotlaridagi ahamiyati.
2. Muammoli o'qitish texnologiyalari.

Muammoli ta'limning nazariy asoslari. Muammoli ta'lim texnologiyalari: sportchilarning ijodiy tafakkurlari va kreativ qobiliyatlarini faollashtirishdagi ahamiyati. Muammoli o'qitishning tarixi. Muammoli ta'limning bosh maqsadi – sportchilar muammoni to'liq tushunib etishiga erishish va uni hal eta olishga o'rgatishdan iborat ekanligi. Muammoli vaziyat tushunchasi haqida.

Muammoli o'qitish texnologiyalari: Yalpi “Aqliy hujum”, “Pinbord”, “Klaster”, FSMU, “Keys stadi”, “Toifalash jadvali” va boshqa pedagogik texnologiyalar.

#### **3-mavzu. Sport mashg'ulotlarini samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning o'rni va imkoniyatlari**

##### **Reja:**

1. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi hamkorlik ta'limi va hamkorlik ta'limi texnologiyalarining didaktik mohiyati.
2. Interfaol metodlar va ularning turlari.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi hamkorlik ta'limi. Hamkorlik ta'limi texnologiyalarining didaktik mohiyati. O'quv-trenerovka jarayoniga xos hamkorlik ta'limi tamoyillarining mohiyati.

Interfaol metodlar va ularning turlari. Yosh sportchilarda mahoratni shakllantirish bosqichlari va ularda interfaol metodlarini qo'llash samaradorligi. Interfaol texnologiyalarning pedagogik va psixologik xususiyatlari. To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlanishi. “B/B/B” chizmasi. “Tushunchalar tahlili” metodi. “Qarorlar shajarasi” metodi.



**MODULNI O‘QITISHDA  
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL  
TA’LIM METODLARI**

### “B/B/B” CHIZMASI

“B/B/B” chizmasi – Bilaman / Bilishni hohlayman / Bilib oldim. Mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tinglovchilar:

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida / kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

2. “Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo‘naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1- va 2-bo‘limlarini to‘ldiradilar.

3. Ma‘ruzani tinglaydilar, mustaqil o‘qiydilar.


4. Mustaqil kichik guruhlarda jadvalning 3-bo‘limni to‘ldiradilar.

### B/B/B JADVALI

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

### “SWOT-TAHLIL” METODI

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



**Namuna:** Olimpiya sport turlaridan sanaladigan futbol sport turi yuzasidan SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>	<b>Futbol sport turining kuchli tomonlari</b>	<b>W</b>	<b>Futbol sport turining kuchsiz tomonlari</b>
	• • • •		• • • •
<b>O</b>	<b>Futbol sport turining imkoniyatlari</b>	<b>T</b>	<b>Futbol sport turiga to'siqlar</b>
	• • • •		• • • •

### “QARORLAR SHAJARASI” METODI

“Qarorlar shajarasi” metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qator murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidagi eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondoshuvdir.

Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida mazkur metodning qo‘llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilano qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini batafsil tahlil etish imkoniyatini yaratadi.

#### Umumiy muammo

1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
<i>afzalligi</i>	<i>kamchiligi</i>	<i>afzalligi</i>	<i>kamchiligi</i>	<i>afzalligi</i>	<i>kamchiligi</i>
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•

**Xulosa:**

**Xalqaro kurash turlari**

Erkin kurash		Yunon-rum kurashi		Dzyudo	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•
•	•	•	•	•	•

**Xulosa:**

**“FSMU” METODI**


**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;

har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:

ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.



FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

### “KEYS-STADI” METODI

“**Keys-stadi**” – inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nima-natija (What).

#### “Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	- yakka tartibdagi audio-vizual ish; - keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); - axborotni umumlashtirish; - axborot tahlili; - muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	- individual va guruhda ishlash; - muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; - asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	- individual va guruhda ishlash; - muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; - har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; - muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	- yakka va guruhda ishlash; - muqobil variantlarni amalga qo'llash imkoniyatlarini asoslash; - ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; - yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

### “ASSESSMENT” METODI

**Metodning maqsadi:** mazkur metod tinglovchilar bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali tinglovchilarning bilish faoliyati turli

yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**“TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODI**

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar,
- tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tug'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

<b>Tushunchalar</b>	<b>Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?</b>	<b>Qo'shimcha ma'lumot</b>
<b>Innovatsiya</b>		
<b>Innovatsion ta'lim</b>		
<b>Ta'lim innovatsiyalari</b>		
<b>Trenerning innovatsion faoliyati</b>		
<b>Neologiya</b>		
<b>Aksiologiya</b>		
<b>Praksologiya</b>		
<b>Akmeologiya</b>		

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga tinglovchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

### “VENN DIAGRAMMASI” METODI

“Venn diagramma” metodi – o‘rganilayotgan 2 yoki 3 ob’ektlarning farqli jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi.

“Venn diagrammasi” metodi ta’lim oluvchilarda o‘rganilayotgan ob’ektlarning o‘ziga xos va o‘xshash jihatlarni tahlil qilish, tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Venn diagramma” metodidan nazariy, amaliy, seminar hamda laboratoriya mashg‘ulotlarida keng foydalanish imkoniyati majud. Ushbu metoddan darsda foydalanilganda mavzuni tushuntirish oson bo‘ladi hamda ta’lim oluvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishi yuqori darajada bo‘ladi va mavzu tushuntirilayotganda yoki mustahkamlash bosqichida faol ishtirokchiga aylanadi.


- 1) O‘rganilayotgan “A” ob’ektning o‘ziga xos jihatlari;
- 2) O‘rganilayotgan “B” ob’ektning o‘ziga xos jihatlari;
- 3) O‘rganilayotgan “C” ob’ektning o‘ziga xos jihatlari;
- 4) O‘rganilayotgan “A” va “B” ob’ektlarning o‘xshash jihatlari;
- 5) O‘rganilayotgan “A” va “S” ob’ektlarning o‘xshash jihatlari;
- 6) O‘rganilayotgan “S” va “B” ob’ektlarning o‘xshash jihatlari;
- 7) O‘rganilayotgan “A”, “B” va “S” ob’ektlarning o‘xshash jihatlari.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarni (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;

juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarni (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.







## **NAZARIY MATERIALLAR**

## 1-MAVZU.

### SPORT MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHDA PEDAGOGIK INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

#### Reja:

1.1. SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari

1.2. Pedagogik innovatsiyalar va ularni sport ta'limi jarayoniga qo'llash.

1.3. Sportdagi zamonaviy innovatsion texnologiyalar: eng yaxshi o'ntalik.

**Tayanch iboralar:** innovatsiya, novatsiya, innovatsion jarayon, innovatsion ta'lim texnologiyalari, neologiya, aksiologiya, praksologiya, akmeologiya, texnologiya, sport mashg'ulotlari, kreativlik.

#### 1.1. SPORTDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TURLARI

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

**Sportda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim** – sportchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-trenerovka ta'limi.

Bu ta'lim o'quv-trenerovka muhitining sportchi imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra o'quv-trenerovka ta'limi muhiti, o'quv-trenerovka shart-sharoitlari, o'quv-tarbiya jarayonini to'raligicha sportchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga etishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishga qaratishni nazarda tutadi.

Sportda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati **sportchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratish**dan iborat.

Bu turdagi o'quv-trenerovka sportchilarda mustaqillik, tashabbuskorlik, chaqqonlik, uddaburonlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bu turdagi o'quv-trenerovka mashg'ulotini tashkil etishda trener-o'qituvchilardan har bir sportchiga imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, sportda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quv-trenerovka mashg'uloti jarayonining ishtirokchilari trener-sportchi yoki sportchi-sportchi, sportchi-sportchilar guruhi, sportchi-sportchilar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda o'quv-trenerovka qilish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun o'quv-trenerovka mashg'uloti sharoitini yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Trener-o'qituvchi o'quv-trenerovka mashg'uloti jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat'iy rioya

etishi kerak.

- har bir sportchini alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi;
- sportchini hurmat qilishi;
- sportchining ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi;
- sportchining xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir sportchiga nisbatan tolerant munosabatda bo'lishi;
- sportchining kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- har bir sportchi o'quv-trenerovka mashg'uloti asoslarini etarlicha o'zlashtira olishi uchun qulay ta'lim-tarbiya muhitini yaratishi;
- shug'ullanuvchilarning mustaqil yoki kichik guruhlariga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
- sportchilarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o'rgatish;
- o'quv-trenerovka mashg'uloti jarayonida hech bir shug'ullanuvchiga tazyiq o'tkazmaligi;
- alohida sportchining kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmasligi;
- bordi-yu, sportchi tomonidan mashg'ulotlarni o'zlashtira olmaslik, o'quv-trenerovka mashg'uloti jarayonida o'zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat'iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;
- aniqlangan sabablar asosida sportchining sha'ni, g'ururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan o'quv-trenerovka mashg'ulotlarini o'zlashtira olmaslik, o'zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;
- o'quv-trenerovka mashg'uloti jarayonida har bir sportchi uchun "muvaffaqiyat muhiti"ni yarata olish;
- har bir shug'ullanuvchiga o'quv-trenerovka mashg'uloti vaqtida muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;
- sportchining qobiliyatini o'stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish;
- sportchining shaxsini emas, balki uning aniq xatti-harakatlarini baholashi;
- trener-o'qituvchi sifatida har bir shug'ullanuvchining hurmati va ishonchini qozona olishi zarur

Sportda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, sportchini o'quv-trenerovka mashg'uloti tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turdagi o'quv-trenerovka mashg'uloti sportchilarni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur. Sportchilar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quv-trenerovka mashg'uloti materialini o'zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondoshishni, yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o'z fikrini himoya qilish, musobaqa oldi va musobaqa

jarayonlarida samarali echimni topish, bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Trener-o'qituvchi tomonidan o'quv-mashg'ulot jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo'llanilishi, shug'ullanuvchilarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi. Xususan:

- sport o'yinlari, yakkakurash yoki ko'pkurash sport turlari bo'yicha muammoli izlanish;
- jamoaviy sport turlari bo'yicha kichik tadqiqotlarni olib borish;
- debat;
- bahs-munozara;
- evristik suhbat;
- kichik guruhlarda ishlash va boshqalar.

O'quv-trenerovka mashg'ulotlarini tashkil etishda trener-o'qituvchilar o'quv axborotlarining sportchilar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqтира oladigan, fikrlashga, kreativ yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur.


- turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;
- o'quv-trenerovka topshiriqlarini bajarishda shug'ullanuvchilarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish;
- sportchini juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta'minlash;
- o'quv-trenerovka mashg'ulotlarini loyihalashtirilishiga e'tiborning qaratilishi nafaqat mashg'ulot sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi, shu bilan birga sportchilar shaxsining rivojlanishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

Eng muhimi trener-o'qituvchilar o'quv-trenerovka mashg'ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo'lishlariga e'tiborni qaratishlari zarur. SHuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o'rganilayotgan mashq (ham texnik, ham taktik) yuzasidan shug'ullanuvchilarning mustaqil fikr bildirishlari (noto'g'ri bo'lsa-da, fikr bildirishlari)ga imkon berish, nima bo'lganda ham ularni o'ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo'natirilgan ta'limga xos muhim belgilardan biri sanaladi.

O'quv-trenerovka mashg'uloti jarayonida quyidagilardan foydalanish shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yana bir belgisidir:

- kreativ topshiriqlar;
- kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar;
- musobaqa oldi muammoli vaziyatlar;
- rolli o'yinlar;
- bahs-munozara, debat;

Ayni vaqtda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning quyidagi turlari farqlanmoqda (1.1-rasm):



1.1-rasm. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy turlari

## 1.2. PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA ULARNI SPORT TA'LIMI JARAYONIGA QO'LLASH

### "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" va "ta'lim innovatsiyalari"

#### tushunchalarining mazmuni.

Lug'aviy jihatdan "**innovatsiya**" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("**innovation**") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi.

"Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

Innovatsiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovations" – kiritilgan yangilik, ixtiro) –

**1.** texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar;

**2.** ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi".

**A. Prigojinning** fikriga ko'ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg'un elementlar bilan boytib borish tushunilishi lozim. Bu o'rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. SHundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o'ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

Amerikalik psixolog **E. Rodjers** o'z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o'rgangan.


**Innovatsion ta'lim** (ingl. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

**Ta'lim innovatsiyalari** – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondoshuv asosida echish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar

Ta'lim innovatsiyalari “innovatsion ta'lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta'lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klubi”da qo'llanilgan.

Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. 1.2-rasmga qarang.



1.2-rasm. Ta'lim innovatsiyalarining asosiy turlari

Innovatsiyalar turli ko'rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondoshuvlar;

- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish **maqsadi** ko'zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham "novatsiya", "innovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi.

**Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondoshuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.**

Ilmiy adabiyotlarda "novatsiya" (yangilanish, yangilik) hamda "innovatsiya" (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Misol uchun, **V. Zagvyazinskiy**ning e'tirof etishicha, "yangi", "yangilik" tushunchasi nafaqat muayyan g'oyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondoshuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlaran iborat bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish g'oyalarini o'zida aks ettiradi.

### 1.1-jadval

#### Novatsiya va innovatsiyalar o'rtasidagi asosiy farqlar

Asosiy farqlar	
Novatsiya	Innovatsiya
1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi;	1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi;
2) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi;	2) ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi;
3) metodlar yangilanadi;	3) sub'ektlarning faoliyati to'la yangilanadi;
4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi	4) yangi texnologiyalar yaratiladi;
	5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi;
	6) amaliyotning o'zi ham yangilanadi

Darhaqiqat, **yangilik** – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va boshqa ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mohiyatiga ko'ra **novatsiya** va **innovatsiya** o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Ular quyidagilardir (1.1-jadvalga qarang).



**I. Podlasiyning fikriga ko'ra, ta'lim innovatsionlari quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:**

- pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi;
- o'quv jarayonining o'zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;
- o'quvchi (tinglovchi) faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ta'lim mazmunining yangilanishi;
- o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi;
- ta'lim tizimi boshqaruvning o'zgarishi;
- ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi.

### **Trener-o'qituvchining innovatsion faoliyati**

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, **X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I. Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, N.V. Kuzmina hamda V.A. Slastenin** kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan.

Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

**V. Slastenin** innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo'naltirilgan jarayoni majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko'ra har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy sub'ektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag'batlantirish maqsadini ko'zlaydi.

Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, sub'ektiv, mahalliy va shartli g'oyalar tarzida namoyon bo'ladi.

**Xususiy** yangilik munosabat, ob'ekt yoki jarayonga tegishli elementlardan

birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi.

**Sub'ektiv** yangilik ma'lum ob'ektning o'zini yangilash zaruriyatni ifodalaydi.

**Mahalliy** yangilik alohida olingan ob'ekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi.

**Shartli** yangilik esa munosabat, ob'ekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi.

**R. Yusufbekova** innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi.

Rossiyalik olimlar **A. Prigojin, B. Sazonov, V. Tolstoy, N. Stepanov** va boshqalar esa innovatsion jarayon hamda uning tarkibiy qismlarini o'rganishga e'tiborni qaratgan. Bu o'rinda ular innovatsion jarayonning tashkil etilishiga nisbatan quyidagi **ikki yondoshuv** mavjud ekanligini e'tirof etadi:

**1.** yangilikning individual mikro darajasi (unga ko'ra qandayir yangi g'oyaga amaliyotga joriy etiladi);

**2.** alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi mikro daraja (bu o'rinda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirlanishi, birligi, raqobati va birining o'rnini ikkinchisi tomonidan egallanishi ahamiyatli sanaladi).

**A. Prigojin, B. Sazonov** va **V. Tolstoy**lar o'z tadqiqotlarida yangilik kiritishning tizimli konsepsiyani asoslashga uringan. Bu o'rinda mualliflar innovatsion jarayonlarning quyidagi **ikki muhim bosqichi**ni bir-biridan ajratib ko'rsatishadi:

**1.** Yangilik sifatida namoyon bo'ladigan g'oyalarni ishlab chiqish (m: korxonada, tashkilot tomonidan muayyan turdagi mahsulotni ishlab chiqishning rejalashtirilishi).

**2.** Yangilik (muayyan mahsulot)ni keng ko'lamda ishlab chiqish.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondoshuvlar kuzatiladi. Ular:

**1. Gnostik-dinamik yondoshuv** (unga ko'ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tadbiiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg'or pedagogik (ta'limiy) innovatsiyalar va ularni o'rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malakalarni izchil o'zlashtiradilar, o'z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo'llash borasidagi tajribalarni o'zlashtiradilar).

**2. Individual faoliyatli yondoshuv** (bunda pedagoglar o'z-larining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan hola amaliyo faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar).

**3. Ko'p sub'ektkli (dialogik) yondoshuv** (mazkur yondoshuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o'zaro, xususan, ko'p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta'lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzluksiz qo'llashga doir tavsiya hamda ko'rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi).

**4. Insonparvarlik yondoshuvi** (ushbu yondoshuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istaklari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi).

**5. Individual-ijodiy yondoshuv** (unga ko'ra har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi).

**Innovatsion faoliyat** – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualni muammolarni echishga qaratilgan faoliyat. Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat.

Shu o'rinda trener-o'qituvchining innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- o'quv-trenerovka jarayoniga yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- o'quv-mashg'ulotga oid yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- kreativligi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

**M. Jumaniyozov**ning e'tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyati quyidagi belgilar asosida namoyon bo'ladi:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;

- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish

**V. Slasteninning** fikriga ko'ra innovatsion yondoshuv quyidagilarga ega bo'lishni ifodalaydi:

- ijodiy faollik;
- faoliyatga yangilik (o'zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik;
- yangicha fikrlash;
- yuksak muomala madaniyati

**R. Yusufbekova** pedagogik nuqtai nazardan innovatsion jarayon tuzilmasi uch blokdan iborat deb hisoblaydi. Ya'ni:

**1.** Sohada namoyon bo'layotgan yangilikni ajratib ko'rsatuvchi blok (unda pedagogikadagi yangi g'oyalar, pedagogik yangiliklarning tasnifi, ularni asoslashga xizmat qiladigan shart-sharoitlar, yangilik darajasini belgilovchi me'yorlar, pedagoglarning yangiliklarni o'zlashtirish va unan amaliyotda samarali foydalanishga tayyorliklari, an'analar va novatorlik tashabbuslari, sohada yangiliklarni yaratish bosqichlari aks etadi).

**2.** Pedagoglar tomonidan yangilikning idrok qilinishi, o'zlashtirilishi va baholanishi ifodalovchi blok (unda pedagogik jamoalar tomonidan yangiliklarning baholanishi va o'zlashtirilishi – turli innovatsion jarayonlar, konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamoalarning yangilikni idrok etish va baholashga tayyorliklari aks etadi).

**3.** Yangilikdan foydalanish va uni joriy etish bloki (unda yangilikni amaliyotga tadbiiq etish va ulardan samarali foydalanish hodisasi ro'y beradi).

Pedagogik innovatsiyalarning davriy takrorlanishi va qaytarilishi qonuniyati yangiliklarning yangi, yanada qulay sharoitlarda qayta tiklanishini ifodalaydi.

Odatda trenerlik faoliyatidagi innovatsiyalarning amaliyotga tadbiiq etilishi *ikki xil* kechadi:

**1.** Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tadbiiq stixiyali kechadi, ya'ni, innovatsion jarayonda pedagogik yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, ularni amaliyotga tadbiiq etishda mavjud shart-sharoitlar, usul va yo'llariga ongli munosabat bildirilmaydi.

**2.** Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tadbiiq stixiyali kechadi, ya'ni, pedagogik yangiliklar innovatsion jarayonda ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy

asoslangan faoliyat mahsuli sifatida amaliyotga joriy etiladi

Bugungi kunda trener-o'qituvchilarning innovatsion faoliyati ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Trener-o'qituvchi tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondoshuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra trener-o'qituvchilar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondoshuvni qaror topishi asosida kechadi.

Trener-o'qituvchilarda innovatsion yondoshuvning qaror topishi ham murakab jarayon bo'lib, u bir necha bosqichda kechadi.

**Trenerning innovatsion faoliyati** – zamonaviy innovatsion g'oya, me'yor, loyiha, metod va texnologiyalarni jadal o'zlashtirishi va amaliyotga tatbiq qilishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni echishga karatilgan faoliyat.

**Trener-o'qituvchining innovatsion faoliyatini eng muhim tavsifi kreativlikdir.**

**Kreativlik** – trener-o'qituvchining sport ta'limi jarayonga ijodiy yondoshuvi va shug'ullanuvchida yangi tushuncha va ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatidir.

**Kreativlikni tavsifi:**

- ✓ fikrining ravonligi;
- ✓ fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- ✓ o'ziga xoslik (originallik);
- ✓ qiziquvchanlik;
- ✓ farazlar yaratish qobiliyati;
- ✓ fantaziyasi.

**Trenerning kasbiy, metodik faoliyati va uni takomillashtirish yo'llari:**

**Intensiv yo'l** – trener-o'qituvchining pedagogik, metodik mahoratlari va texnikasini hamda kasbiy faoliyatni rivojlanishining motivatsiyalar hisobiga jadal suratlarda amalga oshirishi.

**Motiv** – insonni o'qishga yoki o'quv-trenerovka mashg'ulotlarida muayyan harakatlar(i)ni bajarishga undovchi ijobiy sabablar yig'indisi. Sportda shug'ullanuvchining ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligini rivojlantirish.

**Motivatsion ko'nikma** – shaxs motivlarining yig'indisi va shaxsning ijodiy, ilmiy, jismoniy mehnatga layoqatligining eng muhim belgisi.

**Ekstensiv yo'l** – trener-o'qituvchining pedagogik va metodik faoliyatini takomillashtirishda yangi modernizatsiya qilingan vositalar, jihozlar, texnologiyalardan mashqlar o'rgatish jarayonida maqsadli foydalanishi.

**Pedagogik innovatsiya yo'nalishlari** – innovatsion texnologiyalar, pedagogik yangiliklarni pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish va baholash, amaliyotda qo'llash to'g'risidagi ta'limot bo'lib **to'rtta**: **pedagogik – neologiya, aksiologiya, praksologiya, akmeologiya** yo'nalishlariga ega.



1.3-rasm. Pedagogik innovatsiya yo'nalishlari

**Pedagogik neologiya** (yunoncha “neo” – yangi va “logos” – ta’lim bo‘lib, yangilik haqidagi ta’limot) deyilib, bunda pedagogika sohasidagi har qanday yangiliklar o‘rganiladi, umumlashtiriladi.

**Pedagogik aksiologiya**da (yunoncha “aksioma” – “isbotlanmaydigan ta’limot” ma’nosini anglatadi) pedagogik yangiliklar ichidan eng ishonchlisi va samaralisi tanlab olinadi.

**Pedagogik praksologiya** (yunoncha “praks” – “harakat va “logos” – ta’lim, ya’ni “amaliyotda qo‘llash haqidagi ta’limot” ma’nosini anglatib, bunda tanlab olingan pedagogik yangiliklarni amaliyotda qo‘llash, muayyan samaraga erishish masalalari tushuniladi.

**Pedagogik akmeologiya** – yunoncha oliy nuqta, o‘tkir, gullagan, etuk, eng yaxshi davr degan ma’nolarni bildiradi.

### 1.3. SPORTDAGI ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: ENG YAXSHI O'NTALIK!

Sportchilarni texnik va taktik jihatdan tayyorlash jarayonini optimallashtiruvchi o'nta eng samarali ilg'or texnologiyalar haqida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:



**1. ReconJet** – interfaol xususiyatli ko'zoynaklar. Uning tarkibini – protsessor, HD formatdagi videolarni suratga oluvchi kamera, xotira uyasi, us o'lchamli akselerator. Mazkur qurilmadan “ektremal” sport haqida biladiganlar tomonidan yilning istalgan vaqtida foydalanilishi mumkin.



**2. Flyboard** moslamasi: suvning yuqori sathida “maxsus qanotlarda suzish”. Mazkur qurilma shu nomdagi sport turining shakllanishiga tutki bergan.





**3. Futbol maydonining lazerli versiyasi:** “Nayk” kompaniyasi tomonidan yaratilgan Ispaniya poytaxtining turli burchaklariga mikroavtobus orqali olib boriladigan futbol maydonining lazerli versiyasi. Bunda mijozning telefon raqamiga u taklif qilingan matchning vaqti va joyi ko‘rsatilgan xabar yuboriladi.



**4. iPodNano pleeri:** ushbu qurilma sportni jondilidan yaxshi ko‘radiganlar uchun mo‘ljallangan. Ushbu qurilmaning musiqiy hamrohligi yordamida mashqlarni bajarishda bajarishga oson kirishiladi.







**5. AdidasMiCoachElite** va **MLS** – futboldagi aqlli texnologiya. Ushbu qurilmaning mohiyati barcha futbolchi va AQSH Futbol Ligasi murabbiylarini jismoniy mashqlar paytida ularning jismoniy faollik holatini nazorat qilishni ta'minlaydigan asboblardan ta'minlanga qaratilgan.



**6. SantaClaraStadium** – 60000 o‘rinli stadion bo‘lib, dunyodagi eng yuqori tezlikdagi Wi-Fi tarmog‘iga ega. Bu maxsus simsiz platforma bo‘lib, unda tomoshabinlar zamonaviy texnologiyalardan qulay foydalanishlari mumkin.





7. London Olimpiadasi uchun yaratilgan **kichik MINI** – bu avtomobil “nou-xau” hisoblanib, tegishli mashinaning 4 baravarga kichraytirilgan nusxasi. Mazkur qurilma musobaqalar paytida uskunalarni tashishga mo'ljallangan.



8. **GoPro** – bu ham ekstremal sport turini yaxshi ko'radiganlar uchun kamera. Kamera har qanday sharoitda ham hamma uchun tomoshabop sport harakatlarini suratga ola biladi.





**9. miCoachSmartBall** – bu avtomatik rejimda darvoza chizig‘ini aniq kesib o‘tishini aniqlaydigan maxsus futbol to‘pi. Mazkur qurilma futbolchilar uchun aqlli-murabbiy vazifasini ham o‘tashi mumkin.



**10. C-RingDumbbells** – bu aqlligantel bo‘lib, mazkur qurilmadagi rang berish kodlari yordamida sportchining mashg‘ulotlar vaqtida sarflaydigan kaloriyasi miqdorini o‘lchanadi. Bunda yashil – bu keyingi jismoniy mashqlar zaruratini, sarg‘ish – mashg‘ulotlarning cho‘qqisini, qizil rang esa mashg‘ulotni yakunlash kerakligini anglatadi



Umuman olganda sport texnologiyalarning paydo bo'lishi va muntazam ravishda rivojlanib borishi muhim ahamiyatga egadir.

Sababi ular yordamida tanlanadigan sport turini aniqlashtirish holati yaxshilanadi yoki tanlov tizimi samaradorligi oshadi. SHuningdek, jismoniy tarbiya va sport faoliyatida kelajakdagi muvaffaqiyatlarni bashoratlash hamda uning ishonchililigi ortadi. Asosiysi salomatlikni saqlash, sog'lomlashtirish jarayonlarining tahlili yaxshilanadi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Sportda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini asoslab bering.
2. O'quv-trenerovka mashg'uloti jarayonida foydalaniladigan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlarining qanday shartlari bor?
3. O'quv-trenerovka mashg'ulotida qo'llaniladigan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlarining qanday belgilari mavjud?
4. Fandagi shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy turlari mohiyatini tushuntirib bering.
5. Innovatsion ta'lim ta'rifi qanday va tarixiyli haqida nimalarni bilasiz?
6. Ta'lim innovatsiyalarining asosiy turlari haqida nimalarni bilasiz?
7. "Novatsiya", "innovatsiya" tushunchalarining o'zaro farqi nimada?
8. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan qanday kechadi?
9. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishdagi o'ziga xos yondoshuvlar haqida nimalar bilasiz?
10. Trenerning innovatsion faoliyatiga ta'rif bering.
11. Pedagogik innovatsiya yo'nalishlari qanday?
12. Sportdagi zamonaviy innovatsion texnologiyalar haqida nimalar bilasiz?

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // <http://lex.uz/acts/20596>
2. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 464-I-son Qonuni // <http://www.lex.uz/docs/16188>
3. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-394-son Qonuni // <http://www.lex.uz/docs/2742233>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli Farmoni // <https://lex.uz/pdfs/4711327>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun

- hujjatlari to'plami. – 6(766)-son. – 70-modda. – B. 25-151.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 23(783)-son. – 455-modda.– B. 47-69.
  7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 658-son qarori // <http://lex.uz/search/nat?actnum=658>
  8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 16 iyuldagi "Davlat ta'lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 542-sonli Qarori // <http://lex.uz/pdfs/3824011>
  9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 10 oktyabrdagi "Sport maktablarini malakali trener kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 284-sonli qarori // <http://lex.uz/pdfs/2480191>
  10. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019.
  11. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: "O'zbekiston", 2018.
  12. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston", 2018. – 592 b.
  13. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.
  14. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / SH.M.Mirziyoev. – Toshkent: "O'zbekistan" NMIU, 2016. – 56 b.
  15. Pedagogika: Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix uchebnix zavedeniy / V.A. Slastenin, I.F. Isaev, A.I. Mischenko, E.N. SHiyonov. – M.: Shkola-Press, 1997. – 512 s.
  16. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: "Iqtisodiyot" nashr., 2011. – 206 b.
  17. Ishmuhamedov R., Mirsolieva M. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. –T.: "Fan va texnologiya", 2014. – 60 b.

18. Serova, L.K. Psixologiya lichnosti sportsmena: ucheb.posobie dlya akademicheskogo bakalavriati / L.K. Serova. – 2-e izd., ispr. i dop. – M.: Izdatelstvo YUrayt, 2019. – 124 s.
19. Hoshimova M.K. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2012. – 50 b.
20. Pedagogika. Izohli lug'at / O'. Asqarova va b. – Namangan: "Navro'z", 2014. – 263 b.
21. Raximov O.D., Turg'unov O.M., Mustafaev Q.O., Ro'ziev H.J. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2013. – 200 b.
22. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, D.I. Ro'zieva, M.H. Usmonboeva. – T.: "Fan" nashriyoti, 2012. – 246 b.
23. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'll. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, M.H. Usmonboeva, D. Inog'omova. – T.: TDPU, 2012. – 193 b.
24. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar / Ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009. – 160 b.
25. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008. – 164 b.
26. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.
27. Zaysev V.S. Sovremennie pedagogicheskie texnologii: uchebnoe posobie. – V 2-x knigax. – Kniga 1. – CHelyabinsk, CHGPU, 2012. – 411 s.
28. Boritko N.M., Solovsova I.A., Baybakov A.M. Pedagogicheskie texnologii: Uchebnik dlya studentov pedagogicheskix vuzov / Pod red. N.M. Boritko. – Volgograd: Izd-vo VGIPK RO, 2006. – 59 s.
29. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.
30. Zeer E.F., SHaxmatova N. Lichnostno-orientirovannie texnologii professionalnogo razvitiya spetsialista. – Ekaterinburg: EGPI, 1999. – 244 s.
31. Pedagogika / Jismoniy tarbiya institutlari uchun darslik. Rus tilidan tarjima. – T.: O'qituvchi, 1990. – 296 b.

#### **Elektron ta'lim resurslari**

32. <https://president.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
33. <https://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasi Hukumat Portali
34. <https://strategy.uz> – "Taraqqiyot strategiyasi" Markazi
35. <http://www.openinfo.uz> – Korporativ axborot yagona portali
36. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet
37. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

38. <http://sportedu.uz/> – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi
39. <https://minsport.uz> – O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi
40. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
41. <http://senat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati
42. <http://uza.uz> – O'zbekiston Milliy axborot agentligi
43. <http://huquqburch.uz> – Huquqiy axborot portali
44. <https://biblio-online.ru/viewer/psihologiya-lichnosti-sportsmena-438413#page/1>
45. <https://viafuture.ru/katalog-idej/novye-tehnologii-v-sporte>



## **AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**



**1-AMALIY MASHG'ULOT MAVZUSI.**  
**2-MAVZU MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI**  
**SPORT MASHG'ULOTLARDA QO'LLASH**

**Reja:**

*2.1. Muammoli ta'lim haqida tushuncha va muammoli ta'lim texnologiyalarining o'quv-trenerovka mashg'ulotlaridagi ahamiyati.*

*2.2. Muammoli o'qitish texnologiyalari*

*Tayanch iboralar: muammoli ta'lim, muammol ta'lim texnologiyalari, muammo, muammoli vaziyat, echim*

**2.1. MUAMMOLI TA'LIM HAQIDA TUSHUNCHA VA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'QUV-TRENEROVKA MASHG'ULOTLARIDAGI AHAMIYATI**

Tinglovchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim **muammoli ta'lim** deb ataladi.

Muammoli ta'limning ilk g'oyalari amerikalik psixolog va pedagog **J.Dyui** (1859-1952 yy.) tomonidan asoslangan. U 1894 yilda CHikagoda o'qitish o'quv rejasi bo'yicha emas, balki o'yin va mehnat asosida olib boriladigan tajriba maktabini tashkil etgan.

**J.Dyui** muammoli ta'lim asosi sifatida quyidagi yo'nalishlarni belgilagan:

- 1.** ijtimoiy;
- 2.** konstruktiv;
- 3.** badiiy ifodaviy;
- 4.** ilmiy-tadqiqot.

Muallif ko'rsatilgan yo'nalishlarda ta'limni tashkil etish uchun quyidagi vositalardan foydalangan:

- 1.** so'z;
- 2.** san'at asarlari;
- 3.** texnik qurilmalar;
- 4.** o'yinlar;
- 5.** mehnat.

O'tgan asrning 60-yillarida esa muammoli ta'lim **S.L. Rubinshteyn, M.I. Maxmutov, V.Okon, I.YA. Lerner** kabi tadqiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan.

**S.L. Rubinshteyn**ning "Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi" degan g'oyasi muammoli ta'limning psixologik asosi sifatida qabul qilingan.

**Muammoli ta'lim turlari (M.N. Skatkin):**

1. Bilimlarni muammoli bayon qilish (muammoli ma'ruza).
2. Muammoli topshiriqlarni hal qilish (muammoli amaliy mashg'ulot).
3. Kichik ilmiy tadqiqotlarni olib borish (muammoli tajriba).

Muammoli ta'limning asosini **muammo** (yun. "to'siq", "qiyinchilik") yoki **muammoli vaziyat** tashkil etib, **muammoli TT** ularning echimini topishga xizmat qiladi. Ko'p holatlarda muammo va muammoli vaziyat sinonimlardek qabul qilinadi. Aslida esa ular bir-biridan farq qiladi.

Muammoning **tarkibiy qismlari**:

1. ma'lum bilimlar;
2. noma'lum bilimlar;
3. mavjud tajriba.

**Pedagogik muammo** – hal qilinishi zarur, biroq, hali echish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala.

Muammoni qo'yish quyidagi **bosqichlarda** kechadi:

1. Muammoni izlash.
2. Muammoni qo'yish.
3. Muammoni hal qilish.

Ta'lim jarayonida muammoni qo'yish bir necha sathda kechadi. Ular:

#### **Muammoni qo'yish sathlari**

1-sath	<b>O'qituvchi muammoni qo'yadi va tinglovchilarni uni hal qilishga yo'naltiradi</b>
2-sath	<b>O'qituvchi muammoli vaziyatni bayon qiladi va tinglovchilarning o'zlari mustaqil ravishda muammoni shakllantiradi</b>
3-sath	<b>O'qituvchi muammoni qo'rsatib bermaydi, balki unga tinglovchilarni ro'para qiladi. Tinglovchilar muammoni anglagan holda uni o'zlari shakllantirib, muammoni echish usullarini tahlil qiladi</b>


**Muammoli vaziyat** – tinglovchilarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani echish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish **bosqichlari**:

1. Muammoli vaziyatni yaratish.
2. Vaziyatni tahlil qilish asosida muammoni qo'yish.
3. Farazlarni ilgari surish.
4. Echimni tekshirish.

Pedagogikada muammoli vaziyat metodi ham qo'llaniladi.

**Muammoli vaziyat metodi** – tinglovchilarni muammoli vaziyatga to'qnash kelishini ta'minlash asosida ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo'l. Metodning mohiyati aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va uning echimi yuzasidan qaror qabul qilishdan iborat. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyat metodi qo'llanilganda tinglovchilarning faoliyatlari quyidagi tizim asosida tashkil etiladi:



Muammoli ma'ruza muammoli ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan o'qitish shakli sanaladi.

**Muammoli ma'ruza** – o'qituvchi tomonidan tinglovchini muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yo'naltirish orqali unda bilish faolliyati oshirishga yo'naltirilgan ma'ruza

## 2.2. MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Muammoli ta'limning barcha turlari bo'yicha tashkil etiladigan o'quv jarayonida muammoli TT qo'llaniladi.


**Muammoli TT** – tinglovchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalari

Muammoli TTning quyidagi shakllari mavjud:

**Muammoli TTning asosiy shakllari:**

Muammoli bayon, evristik suhbat, muammoli namoyish, izlanishga asoslangan amaliy mashg'ulot, ijodiy topshiriq, xayoliy muammoli tajriba, muammo farazlarini shakllantirish, masalalarni muammoli echishning optimal variantlarini tanlash, muammoli vazifa, muammoli o'yin.

Muammoli ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. SHu sababli o'qituvchilar ularni to'g'ri tanlashga e'tibor qaratishlari zarur. Quyidagilar muammoli ta'limning asosiy metodlari sanaladi:



Demak, zamonaviy sharoitda ta'lim amaliyotida loyiha hamda muammoli ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi o'qitish jarayonini samarali kechishini ta'minlash bilan birga tinglovchilarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga nisbatan qo'yilayotgan ijtimoiy talablar o'qituvchilardan loyiha va muammoli ta'lim texnologiyalarini o'qitish jarayonida maqsadli, samarali qo'llashni talab etadi. Mazkur ta'lim texnologiyalarining mohiyatiga oid ma'lumotlar bilan tanishish malaka oshirish kurslari tinglovchilarining mavjud bilimlarini boyitish bilan birga amaliy ko'nikma, malakalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

**1-amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:**

**1-topshiriq**  
**Tarbiya usullari**

**Mashg'ulotda "Aqliy hujum" metodidan foydalaniladi.**

**"Aqliy hujum" savoli:**

1. O'quv-trenirovka jarayonida Siz qanday tarbiya usullaridan foydalanasiz? Javoblar tinglanadi va muhokama qilinadi.

Mavzu bo'yicha mini-ma'ruza o'tkaziladi.

**Mini-ma'ruza matni:**

*Tarbiya usullari – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.*

Tarbiya maqsadi va mazmuni usullarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish usullari unga muvofiq bo'lishi zarur.

Tarbiya usullari bu tarbiyachi va jamoa tomonidan g'oyaviy-axlokiy e'tikodlar, siyosiy bilimlar, xis - tuygu va odatlar, did, faxm -farosat, iymonni tarkib toptirish maksadida ko'llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullaridir. SHuningdek, tarbiya usullari tarbiyalanuvchining o'z shaxsini takomillashtirishga, xarakter kilishni xam nazarda tutadi.

Tarbiya usullarining quyidagi turlari mavjud:

- ✓ so'z orqali;
- ✓ ko'rgazmali;
- ✓ amaliy;
- ✓ namuna bo'lish;
- ✓ rag'batlantirish;
- ✓ jazolash.

Bu usullar axlok, odob va tarbiyaning barcha tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan. Xalk pedagogikasida turli xil tarbiya usullari, vositalaridan foydalanilgan. Bu usul va vositalar nixoyatda xilma - xil bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik kiladi. CHunki, bu usullar ilmiy pedagogikaning shakllanishida xam o'z ta'sirini o'tkazgan.

O'quvchilarda o'z-o'zini tarbiyalashni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini tarbiyalash - shaxsning o'z psixologik sifatleri, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari qadr-qimmatlari, kamchiliklarini baholay olishidir.

O'z-o'zini tarbiyalash orqali o'ziga ta'sir qilishning quyidagi usullari mavjud:

- ✓ o'z-o'zini ishontirish;
- ✓ o'z-o'ziga buyruq berish;
- ✓ o'z-o'zini majbur qilish;
- ✓ o'z-o'zini rag'batlantirish;
- ✓ o'z-o'zini jazolash, o'z-o'zini mashq qildirish.

YUqorida keltirib o'tilgan asosiy tarbiya usullari ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, bir vaziyatni boshqarish, tarbiyalanuvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish va to'g'ri yo'lga yo'naltirish,

### **Mini-ma'ruzadan so'ng, "Muammoli vaziyat" metodidan foydalaniladi.**

Tinglovchilar 6 ta kichik guruhlariga ajratiladi.

Har bir guruhga o'z ish faoliyatlarida o'quvchilar bilan duch kelingan muammoli vaziyatlar va ularni bartaraf etishda ma'lum bir tarbiya usulidan qay ko'rinishda foydalanishganligini tushuntirib berishlari so'raladi.

"Muammoli vaziyat" metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

"Muammoli vaziyat" metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalari va tajribalariga mos kelishi kerak. "Muammoli vaziyat" metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o'rganadilar.

"Muammoli vaziyat" metodi quyidagi bosqichlarda olib boriladi:

1. Ta'lim beruvchi tinglovchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

2. Ta'lim beruvchi tinglovchilarni 6 ta kichik guruhlariga ajratadi.

3. Kichik guruhlar berilgan o'z faoliyatlarida duch kelingan biror muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va berilgan tarbiya usulidan qay tarzda foydalanganliklarini tushuntirib, taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

4. Barcha taqdimotdan so'ng fikrlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatlarni echishda tarbiya usullaridan foydalanish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

#### ***Kichik guruhlariga topshiriqlar:***

1-guruhga topshiriq: "So'z orqali" tarbiya usulidan o'z faoliyatingizda qanday muammoni bartaraf etishda foydalangansiz?;

2-guruhga topshiriq: "Ko'rgazmali" tarbiya usulidan o'z faoliyatingizda qanday muammoni bartaraf etishda foydalangansiz?;

3-guruhga topshiriq: "Amaliy" tarbiya usulidan o'z faoliyatingizda qanday muammoni bartaraf etishda foydalangansiz?;

4-guruhga topshiriq: "Namuna bo'lish" tarbiya usulidan o'z faoliyatingizda qanday muammoni bartaraf etishda foydalangansiz?;

5-guruhga topshiriq: "Rag'batlantirish" tarbiya usulidan o'z faoliyatingizda qanday muammoni bartaraf etishda foydalangansiz?;

6-guruhga topshiriq: "Jazolash" tarbiya usulidan o'z faoliyatingizda

qanday muammoni bartaraf etishda foydalangansiz?;

***Mavzuni xulosalash:***

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib borar ekan, unga muvofiq ravishda tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

Trener yosh sportchilarga biror topshiriq berar ekan, bolalar diqqatini bu ish butun jamoa uchun katta va muhim ahamiyatga ega ekanligiga, umum jamoa va har bir o'rtoqning muvaffaqiyati uning qanchalik mazmunli bajarilishiga bog'liqligiga qaratadi.

Jamoat topshiriqlarining bajarilish sifati butun jamoa bilan muhokama qilinadi. Topshiriq yosh sportchilarning kuch imkoniyatlari hisobga olingan holda beriladi. Topshiriq bajarilayotgan vaqtda trener-o'qituvchi o'smirlarning harakatini nazorat qiladi va kamchiliklarni tuzatib boradi. Ana shunday topshiriqlar sirasiga quyidagilarni: trenirovka uchun sport jihozlarini tayyorlashni, devoriy gazeta chiqarishni, sport zalidagi navbatchilikni, sportchilarning individual kundaliklarini tayyorlash va o'zaro tekshirishni, jismoniy mashqlar texnikasini o'rganish uchun ko'rgazmali qo'llanmalarni tayyorlashni, musobaqa oldidan o'yinning taktik variantlarini ishlab chiqish va boshqalarni kiritish mumkin.

Tarbiyaning shunday usullarini qo'llash chog'ida trener-o'qituvchi asosiy diqqatini beriladigan topshiriq ijtimoiy xarakterga ega bo'lishiga, ularni sport jamoasining asosiy faoliyati maqsadlari bilan bog'lashga, yuqori sport natijalariga erishishga, trenirovka jarayonini va boshqalarni takomillashtirishga qaratadi. Trener-o'qituvchi topshiriqlarni bo'lib berar ekan, tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlarini, mayl va qobiliyatlarini hisobga olmog'i lozim.

## 2-AMALIY MASHG'ULOT MAVZUSI.

### 3-MAVZU SPORT MASHG'ULOTLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI VA IMKONIYATLARI

#### Reja:

3.1. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi hamkorlik ta'limi va hamkorlik ta'limi texnologiyalarining didaktik mohiyati.

3.2. Interfaol metodlar va ularning turlari

*Tayanch iboralar:* hamkorlik ta'limi, didaktika, muammo, interfaol metodlar

#### 3.1. JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDAGI HAMKORLIK TA'LIMI VA HAMKORLIK TA'LIMI TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK MOHIYATI.

Zamonaviy sport ta'limi sharoitida hamkorlik ta'limi, uni tashkil etish o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda.

**Hamkorlik ta'limi** – bu o'quv-trenerovka jarayonida sportchilarning jamoada, kichik guruh va juftlikda texnik yoki taktik mashqlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, “trener-shug‘ullanuvchi(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta'lim bo'lib, uning asosiy g'oyasi o'quv-trenerovka topshiriqlarini jamoada, kichik guruhlarda yoki juftlikda birgalikda, o'zaro hamkorlikda bajarish demakdir.

Bu turdagi ta'limning g'oyalari o'tgan asrning 80-yillarida **J.J. Russo, K.D. Ushinskiy, V.A. Suxomlinskiy, A.S. Makarenko** va boshqa novator-pedagoglarning qarashlari asosida shakllangan.

O'quv-trenerovka jarayonida hamkorlik ta'limi shug‘ullanuvchilarda intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy qobiliyat, qiziqish, motivlarni rivojlantirish asosida dunyoqarashni hosil qilish maqsadini ilgari suradi. Ushbu ta'lim turi “Cooperative learning” (“Korporativ ta'lim”)dan farq qilib, u juftlik va kichik guruhda ishlash orqali shug‘ullanuvchilarning jamoada faoliyat yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

O'quv-trenerovka jarayoniga xos hamkorlik ta'limi tamoyillarining mohiyati quyidagicha:

**1. Juftlik va kichik guruh a'zolarining o'zaro birligi.** Unga ko'ra o'quv-trenerovka jarayonida texnik yoki taktik xarakterdagi mashqlar jamlanmasini juftlik va kichik guruh a'zolarining o'zaro birlikdagi harakatlari asosida o'zlashtiriladi.

Trener-o'qituvchi yaxlit texnik yoki taktik xarakterdagi mashqlar jamlanmasini juftlik yoki kichik guruhlarini shakllantirish asosida ular tomonidan samarali, puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shartitni yaratib bera olishi zarur.

**2. Juftlik va kichik guruhda har bir shug‘ullanuvchining shaxsiy**



**hamda guruh muvaffaqiyati uchun javobgarligi.** Hamkorlik ta'limi shug'ullanuvchilarning o'zaro, birgalikda o'quv-trenerovka ishlarini ta'minlash bilan birga har bir sportchining juftlik yoki kichik guruhda o'zining ichki imkoniyatini to'la ro'yobga chiqara olishi uchun qulay muhitni yaratib bera olishi zarur. Qolaversa, o'quv-trenerovka hamkorlikka asoslanganligi sababli har bir sportchi o'zi mansub bo'lgan juftlik va kichik guruh manfaatlari uchun kurashishi, o'z jufti va jamoadoshlari bilan muvaffaqiyatga erishish uchun mas'uliyatli yondasha olishi zarur.

**3. Juftlik va kichik guruhda hamkorlikka asoslangan o'quv-trenerovka faoliyatining tashkil etilishi.** Hamkorlik ta'limiga ko'ra sportchilar o'quv-trenerovka faoliyatini juftlik va kichik guruhga birikkan holda tashkil etadi. Hamkorlik ham nazariy, ham amaliy xarakterga ega texnik yoki taktik mashg'ulotlarda ham birdek ta'minlanadi. Nazariy mashg'ulotlarda shug'ullanuvchilardan tarkib topgan juftlik yoki kichik guruhlarga nisbatan murakkab bo'lmagan va qisqa muddatda echish mumkin bo'lgan o'quv-trenerovka topshiriqlari berilsa, amaliy mashg'ulotlarda esa bir qadar murakkab yoki murakkab vazifalar beriladi. Har ikki holatda ham shug'ullanuvchilar juftlik va kichik guruhlarda imkoniyatlarni yagona nuqtaga to'plagan holda o'quv-trenerovka topshiriqlarini samarali bajarish, texnik va taktik mashqlarni puxta o'zlashtirishga e'tiborni qaratadi.

**4. Juftlik va kichik guruh ishining umumiy baholanishi.** Hamkorlik ta'limiga ko'ra juftlik va kichik guruhlarda ishlagan barcha shug'ullanuvchilarning faoliyati bevosita sherigi hamda guruhdoshlarining umumiy faoliyati negizida baholanadi. Bu holat har bir sportchida mas'uliyatni yanada oshirishga xizmat qiladi. Zero, har bir shug'ullanuvchining faoliyati, yondoshuvi, faolligi juftlik yoki kichik guruh faoliyati samaradorligini oshirishga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

Sportda o'quv-trenerovka jarayoniga xos hamkorlik ta'limini qo'llashda shug'ullanuvchilar quyidagi shakllarda mashq qiladilar:

**1.** jamoada;

**2.** kichik guruhda;

**3.** juftlikda

**1-variant:** Jamoada shug'ullanish. Har bir shug'ullanuvchining yutuqlaridan jamoa xabardor bo'ladi, chunki jamoa har bir sportchi tomonidan o'quv-trenerovka mashqlarining muvaffaqiyatli o'zlashtirilishidan manfaatdor. Zero, jamoaning muvaffaqiyati har bir sportchi va uning yutug'iga, jamoa oldiga qo'yilgan muammoning echimiga bog'liq.

**2-variant:** Kichik guruhda shug'ullanish. Sportchilar 4-5 nafardan bo'lib, kichik guruhlarga birlashib, blok hoida berilgan o'quv-trenerovka mashqlari ustida ishlaydi. Har bir shug'ullanuvchi texnik yoki taktik mashqlar ustida alohida ishlaydi. So'ngra bir guruhdagi shug'ullanuvchilar boshqa guruhlarga 1 nafardan bo'lib o'tishadi va o'zlari o'rgangan texnik yoki taktik mashqlar bo'yicha ekspert

sifatida tengdoshlariga ma'lumot bergandan so'ng o'z guruhlariga qaytishib, tengdoshlaridan o'zlashtirgan mashqlar bilan o'z jamoasi a'zolarini tanishtiradi. Bunda sheriklarni harakatini diqqat bilan kuzatish, zarur ma'lumotlarni o'z daftarlariga qayd etib borish talab qilinadi. Mashg'ulot so'nggida trener-o'qituvchi istalgan shug'ullanuvchidan o'rganilgan mashq bo'yicha savollarga javob berishini so'raydi.

**3-variant.** Juftlikda ishlash. Sportchilar juftliklarga bo'linadi. Har bir juftlik texnik yoki taktik tayyorgarlik bo'yicha alohida topshiriq oladi. Birgalikda ishlash asosida juftlik a'zolari o'zlariga berilgan mashqlarni o'zlashtiradi. So'ngra bu haqida jamoa oldida ko'rgazmali chiqish qilishadi.

### 3.2. INTERFAOL METODLAR VA ULARNING TURLARI

**O'qitish texnologiyasi** – o'quv mashg'ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarini oqilona tanlab olish, professor-o'qituvchi va talabani vazifalarini oydinlashtirish qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.

**Interfaol metod** – o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham professor-o'qituvchi, ham talabani faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmui.

**Grafik organayzerlar** – o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui. Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor (to'ldirilgan) holda qo'llasa vosita vazifasini, talabalarning mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi.

**Interfaol ta'lim** asosida dars jarayonini tashkil etilganda:

- 1.** O'quvchi-sportchining o'zaro faolligi oshadi, hamkorlikda, ijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.
- 2.** O'quv reja, dastur, darslik, standart me'yor, qo'llanmalar, mavzu mazmuni bilan ishlash malakalari shakllanadi.
- 3.** Ta'lim mazmunini, matnini mustaqil mutolaa qilish, ishlash, o'zlashtirish kundalik shaxsiy ishlarga aylanadi.
- 4.** O'quvchi-sportchi erkin fikr bildirish, o'z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi.
- 5.** Eng muhimi, o'quv-mashq jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi.

Sport ta'lim o'quv-mashq jarayoniga quyidagi innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish tizimi mavjud.

<b>O'QUV MASHG'ULOTLARI TEXNOLOGIYASI</b>	<b>INTERFAOL METODLAR</b>	<b>GRAFIK ORGANAYZERLAR</b>
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'quv-mashq mashg'ulotlari ta'lim texnologiyasi.</li> <li>2. O'quv-trenerovka mashg'ulotlari ta'lim texnologiyasi.</li> <li>3. O'quv-yig'in mashg'ulotlar ta'lim texnologiyasi.</li> <li>4. Mustaqil ta'lim texnologiyasi.</li> <li>5. Keys-stadi ta'lim texnologiyasi.</li> <li>6. Loyiha ta'lim texnologiyasi</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Aqliy hujum.</li> <li>2. Erkin yozish.</li> <li>3. Asoslangan esse.</li> <li>4. FSMU.</li> <li>5. Blits-so'rov.</li> <li>6. Blits-o'yin.</li> <li>7. O'qitish bo'yicha qo'llanma.</li> <li>8. YOzma va og'zaki davra suhbatlari.</li> <li>9. Tushunchalarni aniqlash.</li> <li>10. Tushunchalar asosida matn tuzish.</li> <li>11. CHalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Klaster.</li> <li>2. B-B-B chizmasi.</li> <li>3. T-chizma.</li> <li>4. Venn diagrammasi.</li> <li>5. Konseptual jadval.</li> <li>6. Inset jadvali.</li> <li>7. "Nima uchun" chizmasi.</li> <li>8. "Qanday?" diagrammasi.</li> <li>9. Baliq skeleti.</li> <li>10. Toifalash jadvali.</li> <li>11. Nilufar guli</li> </ol>

**Namuna:** **Nilufar guli texnologiyasi.** Texnologiya didaktik muammolarni echishning samarali vositalaridan bo'lib, nilufar guli ko'rinishiga ega. Asos, unga birikkan to'qqizta "gulbarg" (kvadrat, to'rtburchak yoki aylana)larni o'z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi. O'quvchilarda hal etilayotgan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, ichki mohiyatini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiruvchi texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

**2-amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:**

**O'z-o'zini samarali boshqarish (rivojlantirish)ning 37 qoidasi**

1. Kamolotga va takrorlanmas (yagona) bo'lishga intiling!
2. O'z-o'zini tahlil qilishga e'tibor qarating!
3. O'zingizga nisbatan talabchan bo'ling!
4. O'zingiz uchun goho-goho dam olishni uyushtiring, "mehnatning quli" bo'lmang!
5. Boshqalarga achining, biroq, o'zingizga achinishingizga yo'l qo'ymang!
6. O'z orzu-istaklaringizning quliga aylanmang!
7. O'zingiz uchun o'ziga xos hayot tarzini yarating!
8. Muloqot madaniyatini o'zlashtiring!
9. Jiddiylik, bosiqlik talab etilganda jiddiy, bosiq bo'ling!
10. O'zingizning kuchingiz va qobiliyatingizga ishonang!
11. Vaqt tutqich bermaydi, uni qo'ldan boy bermang!
12. Xatolar saboq chiqarishingizga yordam beradi, unutmang, hatto qirollar ham xatoga yo'l qo'yadilar.
13. Vaqti-vaqti bilan tanaffus qilishga, nafas rostdashga harakat qiling!
14. Ilm o'rganing!
15. O'tmishga nazar tashlamang, bugun bilan yashang va ertani o'ylang!
16. Mehnat insonni takomillashtirishini unutmang!
17. Harakatlaringizning izchil bo'lishiga erishing!
18. Bugun bajarishingiz mumkin bo'lgan ishni ertaga qoldirmang!
19. Boshqalarni nima uchun kechira olmasangiz, o'zingizni ham ana shular uchun kechirmang!
20. O'z ustingizdan hukmronlik qilishingiz, boshqalarning ustidan hukmronlik qilishingizning garovidir!
21. Boshqalardan ular mukammal bo'lmaganliklari uchun xafa bo'lmang!
22. O'z hissiyotlaringizni boshqara olsangiz, engilmas bo'lasiz!
23. Ruhiy zo'riqishlar (stress)larni bartaraf etishni o'rganing!
24. Irodangizni chiniqtirib boring!
25. O'z tanangizni nazorat qilishni o'rganing, uning hukmdoriga aylanasiz!
26. Kamchiliklaringiz bilan kurashishda mohir jangchi bo'ling!
27. "Oq qarg'a" bo'lish (boshqalardan ajralib turish)dan qo'rqmang!
28. O'z oldingizga aniq maqsad qo'yishni o'rganing!
29. Oliy maqsadlarga intilishni o'rganing!
30. Ko'pchilik o'rniga ishlash – qorga yozish kabi befoyda ekanligini unutmang!
31. Tartib - tartibli bo'lishning muhim omili!
32. O'zingizni himoya qilishni, g'ururli bo'lishni o'rganing!
33. Izzatlabligingizdan foydalanib, qirol bo'ling!
34. Hiyla-nayranglarning qurboni bo'lmang!
35. Xatti-harakatlaringiz ustidan intuitsiya (ichki sezgi)ngizning ustun kelishiga yo'l qo'yib bering!
36. O'zingizga tez-tez "Nima uchun?" degan savolni berib turing!
37. Muvaffaqiyatsizliklardan cho'chimang – ular Sizni olg'a intilishga

rag‘batlantiradi!



## **KEYSLAR BANKI**

## 1-MIKROKEYS

Har qanday pedagogik faoliyatning samaradorligi uning natijasi yoki natijalari bilan o'lchanadi. SHaxs faoliyati, bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashda muayyan mezonlarga tayanib ish ko'riladi.

Mezonlarning ishlab chiqilishi faoliyat, bilim, ko'nikma va malakalarning ob'ektiv, xolis baholanishini ta'minlaydi.

### Mikrokeys topshirig'i:

O'qituvchilarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

### Ta'lim oluvchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

Innovatsiya va pedagogik innovatsiyalarga oid material va adabiyotlar.

### Ta'lim oluvchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Pedagogika innovatsiyalarga doir bilimlaringizni tizimlang.
3. Mavzuga oid bilimlaringizni tizimlash asosida echimni asoslashga uring.
4. Echimni bayon eting.

### Mikrokeysni echish jarayoni:

1. Ta'lim oluvchilar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda etarlicha anglab oladi.

2. Ta'lim oluvchi sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan pedagogik innovatsiyalarga doir bilimlarni tizimlashga urinadi.

3. Ta'lim oluvchi mavzuga oid bilimlarini tizimlagan holda echimni asoslashga uring.

4. Echim bayon etiladi.

### O'qituvchining echimi

### Pedagoglarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlari

Holat	Mezonlar
Pedagogning innovatsion faoliyati	1. Yangiliklardan izchil xabardor bo'lish.
	2. O'z fani bo'yicha yangiliklarni yaratish xohishiga egalik.
	3. O'zlashtirgan yoki o'zi asoslangan yangiliklarni amaliyotga tadbiq etishda qat'iyatlilik ko'rsatish.
	4. O'z faoliyatida innovatsiyalarni faol qo'llash

## 2-MIKROKEYS

Birinchi sinfda o'qiyotgan Zarifa matematikadan misolni birinchi va to'g'ri

echgani uchun "besh" baho oldi. O'qituvchi uni buning uchun maqtadi.

Zarifa uyga qaytgach, shoshganicha, bu xabarni oyisiga aytdi. U kundaligini olib ko'rsataman desa, oyisi hatto qayrilib qaramadi ham.

Oyisi Zarifaning xabarini sovuqqonlik bilan tingladi va qiziga qayrilab ham qaramasdan dedi:

- Besh oldingmi? Juda soz, barakalla, - endi ovqat tayyorlashimga xalaqit bermagin-da, o'ynab kel!

Zarifa tushlik ham qilmay ko'chaga chiqib ketdi.

### Savollar:

1. Vaziyatni qanday baholaysiz?
2. Zarifaning onasi tarbiyaning qaysi tamoyillariga zid ish qildi?
3. SHu kabi vaziyatlar Zarifaning tarbiyasiga qanday ta'sir o'tkazadi.

### Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

"Pedagogika" va "Psixologiya"ga oid adabiyotlar.

### Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.
3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajrating.
4. Ana shu tamoyil (tamoyillar) asosida echimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

### O'qituvchining echimi

1. Zarifaning onasi tarbiyada bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, tarbiya jarayonida rag'batlantirish tamoyillariga zid ish qildi.

2. SHu kabi vaziyatlar Zarifaning tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazadi, asta-sekin unda qo'rslik, befarqlik, o'z-o'zini past baholash, o'ziga va atrofdagilarga ishonmaslik kabi xislatlar shakllanadi.

### 3-MIKROKEYS

Ingliz tili darsida o'qituvchi ta'lim oluvchilarga: "Bir-biringdan ko'chirma!", "O'zing yoz, bironlarning daftariga qarama!", "Aqllaring bormi o'zi, shu oddiy narsani ham yozib berolmaysanlar-a!" singari zaharxanda so'zlar bilan bir necha bor qattiq tanbeh berdi.

Boshqa sinfda esa o'qituvchi darsiga yo'l-yo'lakay, albatta, ammo ta'sirli qilib: "Bolalar bir-biringizdan berkitmanglar, bu yaxshi emas, hech kim sizlardan ko'chirayotgani yo'q!", - dedi.

### Savollar:

Ta'lim jarayonida individual nazorat topshiriqlarini har bir ta'lim oluvchi mustaqil bajarishi lozim.

1. Birinchi o'qituvchining ta'lim oluvchilarga bu boradagi yondashuvi



to'g'rimi? Pedagogik talabni shunday tarzda qo'yish qanchalik to'g'ri?

2. Ikkinchi o'qituvchi tomonidan pedagogik talab buzilmoqda. O'qituvchining xatti-harakatini oqlash mumkinmi?

### **Tinglovchilarga tavsiya etiladigan material:**

"Pedagogik talab" va uning mohiyatini yoritishga oid materiallar. Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

### **O'qituvchining echimi**

1. Birinchi o'qituvchi tomonidan garchi pedagogik talab qo'yilayotgan bo'lsa-da, biroq, bu talabning yuqoridagi kabi ifodalash mumkin emas. Aslida o'qituvchining yondashuvi pedagogik talabni ifodalashi lozim. Ammo qo'pollik, qo'rslik bilan qo'yilgan pedagogik talab hech qanday tarbiyaviy ahamiyat kasb etmaydi, aksincha, ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, o'qituvchining yondashuvi bilan ta'lim oluvchilarda bir-birlariga nisbatan ishonchsizlik, bir-birini hurmat qilmaslik kabi sifatlar qaror topishiga zamin yaratib beradi.

2. Bir qaraganda ikkinchi o'qituvchi tomonidan pedagogik talab buzilmoqda. Ammo, ta'lim oluvchilarga nisbatan xayrixohlik, samimiylik ta'lim oluvchilarga aksincha ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining o'zlariga nisbatan xayrixohligini his etgan ta'lim oluvchilar pedagogik talabga zid ish qilmaslikka harakat qilishadi.

### **4-MIKROKEYS**

Madina 2 yoshda u juda ham quvnoq, hamma bilan oson muloqotga kirishadigan, juda ko'p she'rlar biladigan qiz. Uni bog'chaga berishdi va bir oy davomida bola injiq, yig'loqi, dudug'lanadigan bo'lib qoldi.

Pedagog ota-onani oldida doim qizga nisbatan xushmuomala bo'lib, erkalatardi. Ota-ona vaziyatni surishtirsa, pedagog uyda qo'rqib ketgan bo'lsa kerak, deb vaziyatni yumshatishga harakat qildi. Boladan so'ralsa, bola hech nima gapirib bera olmaydi.

### **Savollar:**

1. Bu vaziyatda kim aybdor?
2. Ota-ona qanday yo'l tutishi kerak?
3. Bolaga endi qanday munosabat bildirish kerak?

### **Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:**

"Pedagogika" va "Psixologiya"ga oid adabiyotlar.

### **Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:**

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.
3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajrating.
4. Ana shu tamoyil (tamoyillar) asosida echimni asoslashga uring.
5. Echimni bayon eting.

### **O'qituvchining echimi**

1. Pedagogning tarbiyada bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olmadi va tarbiya jarayonida qattiqqo'llik metodidan foydalandi.
2. Ota-ona bog'cha mudirasi bilan kelishib, Madinani boshqa xaqiqitan muloyim, xushfe'l pedagog guruhiga o'tkazishi kerak.
3. YAngi pedagogga esa vaziyatni tushuntirib, Madinaga e'tiborliroq bo'lishni so'rab, alohida logoped, psixolog va nervopatolog bilan ishlab Madinani bu kuchli stressdan chiqarib olish kerak.

**“Sport ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar”  
moduli bo'yicha test savollari**

**1. Sportchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-trenerovka ta'limi bu-?**

- A. Sportda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim\*
- B. Maktabga yo'naltirilgan ta'lim
- C. Qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan
- D. O'quv trenerovkaga yo'naltirilgan

**2. Sportda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati –?**

- A. Sportchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat\*
- B. Sportchi shaxsini tan olish
- C. Zarur muhitni yaratish
- D. Sportchi shaxsi uchun yaxshi muhit yaratish

**3. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim belgisi :**

- A. Kreativ topshiriqlar, kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar, musobaqa oldi muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar, bahs-munozara, debat, musobaqa ko'rinishidagi bellashuvlar\*
- B. Kreativ topshiriqlar, kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar
- C. Musobaqa oldi muammoli vaziyatlar
- D. Musobaqa ko'rinishidagi bellashuvlar

**4. Lug'aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi qanday ma'noni ifodalaydi?**

- A. Yangilik kiritish;\*
- B. O'zgartirish kiritish;
- C. Qo'shimcha kiritish;
- D. Taklif kiritish;

**5. Muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat qanday nomlanadi?**

- A. Innovatsiya;\*
- B. Novatsiya;
- C. Gravitatsiya;
- D. Gradatsiya;

**6. Yangi g'oyalar, tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan'anaviy yondashuvlar, odatiy bo'lmagan tashabbuslar, ilg'or ish uslublari. Ular nimaning ko'rinishlari sanaladi?**

- A. Innovatsiyaning;\*
- B. Texnologiyaning;
- C. Metodikaning;
- D. Loyihalashning;

**7. Ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha**

**yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar qanday nomlanadi?**

- A. Ta'lim innovatsiyalari;\*
- B. Ta'lim vositalari;
- C. Ta'lim texnologiyalari;
- D. Ta'lim metodlari;

**8. "Innovatsiya ta'lim" tushunchasi dastlab qayerda asoslangan?**

- A. 1979 yilda Rimda;\*
- B. 1919 yilda Berlinda;
- C. 1920 yilda Vashingtonda;
- D. 1995 yilda Moskvada;

**9. Ta'lim innovatsiyalari necha turga bo'linadi?**

- A. 4 turga\*
- B. 2 turga
- C. 6 turga
- D. 8 turga

**10. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?**

- A. Radikal, modifikatsiyalangan va kombinatsiyalangan innovatsiyalar\*
- B. Tarmoq(lokal), modul va tizim innovatsiyalari
- C. Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar
- D. Pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar

**11. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?**

- A. Pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar\*
- B. Radikal, modifikatsiyalangan va kombinatsiyalangan innovatsiyalar
- C. Tarmoq(lokal), modul va tizim innovatsiyalari
- D. Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar

**12. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?**

- A. Tarmoq(lokal), modul va tizim innovatsiyalari\*
- B. Pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar
- C. Radikal, modifikatsiyalangan va kombinatsiyalangan innovatsiyalar
- D. Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar

**13. Kelib chiqish manbaiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?**

- A. Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar\*
- B. Tarmoq(lokal), modul va tizim innovatsiyalari
- C. Pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar
- D. Radikal, modifikatsiyalangan va kombinatsiyalangan innovatsiyalar

**14. Yaxlit mavzuni bir nechta qismlarga ajratgan holda mazmunini yoritish asosida talabalarning uni puxta o'zlashtirishi, o'z bilimlarini boshqalarga yetkazib berish layoqatiga ega bo'lishi ta'minlovchi strategiya qanday nomlanadi?**

- A. "Ajurli arra"\*
- B. "Aqliy hujum"
- C. "Zinama-zina"
- D. "Qora quti"

**15. "Texnologiya" so'zining lug'aviy ma'nosi**

- A. "Texne"- mahorat, "logos"- fan, ta'limot\*
- B. Ishlab chiqish jarayoni
- C. Buyumni tayyorlash jarayoni
- D. "Texne"-texnika, "logos"-ta'limot

**16. Ananaviy ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan metod bu:**

- A. Tushuntirish- namoyish\*
- B. Keys stadi
- C. Loyiha
- D. Klaster

**17. An'anaviy ta'limda yosh sportchi uchun qanday o'rin ajratiladi?**

- A. Tinglovchi, ko'rsatmalarni bajaruvchi\*
- B. Mustaqil bajaruvchi
- C. Ijodkor
- D. Sub'ekt

**18. Innovatsion ta'limda sportchi uchun qanday o'rin ajratiladi?**

- A. Faol sub'ekt-sub'ekt munosabatida bo'luvchi shaxs\*
- B. Tinglovchi
- C. Ob'ekt
- D. Mustaqil bajaruvchi

**19. Yangi g'oyalar, tizim yoki faoliyatini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, ilg'or ish uslublari qaysi javobda ko'rsatilgan?**

- A. Innovatsiyaning; \*
- B. Texnologiyaning;
- C. Metodikaning;
- D. Loyihalashning

**20. Yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi faoliyati qanday nomlanadi?**

- A. Innovatsion faoliyat;\*
- B. Pedagogik faoliyat;
- C. Ijodiy faoliyat;
- D. Ijtimoiy faoliyat;

**21. ... kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash(ko'chirish,taqlid qilish) asosida o'zlashtirish shakli.**

- A. O'yin;\*
- B. O'qish;

C. Mehnat;

D. Faoliyat;

**22. Muammoli ta'limning ilk g'oyalarini kim asoslagan?**

A. J. Dyui;\*

B. L. Rubinshteyn;

C. I. Unt;

D. T. Maxmutov;

**23. Qaysi javobda xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan "Pedagogik texnologiya" ga berilgan ta'rif ko'rsatilgan?**

A. "Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarini hamda ularning o'zaro ta'sirini e'tiborga olgan holda o'qitish va o'quv materialini o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimi"\*

B. "Pedagogik texnologiya ta'limni tizimlashtirish yoki sinfda o'qitishni tizimlashtirish g'oyalarini pedagogikaga tadbiq etishdan iborat"

C. "Pedagogik texnologiya – o'quv jarayoni professional tayyorgarlik tizimini loyihalashdan iborat"

D. "Pedagogik texnologiya – ta'lim maqsadlarga erishishda foydalaniladigan barcha shaxs, amaliy va uslubiy vositalarning tizimlashgan majmui va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi"

**24. G'uncha, bog'lam yoki tarmoqlash kabi ma'nolarni anglatib, ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni yaratadigan grafik organayzer qanday nomlanadi?**

A. "Klaster";\*

B. "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" (B.B.B.);

C. "Blis-so'rov";

D. "Debat";

**25. Ta'lim deb nimaga aytiladi?**

A. O'quvchilarni bilim, ko'nikma malakalarni egallash, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, axloqiy – ma'naviy fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida o'quv – bilish faoliyatini tashkil etishdan iborat pedagogik jarayon.\*

B. Ta'lim bu – o'qituvchining o'quvchi talabalarga ta'lim – tarbiya berish jarayonidir.

C. O'quvchilarga ma'lumot berish maqsadida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro xamkorligidir.

D. Ta'lim bu – o'quvchi – talabalarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish, ularni rivojlantirish

**26. Muammoli bayon, o'yin, namoyish, izlanishga asoslangan amaliy mashg'ulotlar qanday ta'lim texnologiyalarning turlari hisoblanadi?**

A. Muammoli ta'lim texnologiyalarining;\*

B. Dasturiy ta'lim texnologiyalarining;

C. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarining;

D. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalarining.

**27. Ta'lim vositalariga nimalar kiradi?**

A. Ta'lim jarayonini amalga oshirishda yordam beruvchi vositalar;\*

B. - O'qituvchida bo'lgan barcha ko'rgazmali qurollar;

C.-O'qitishda qo'llaniladigan barcha yordamchi vositalar;

D.-Kompyuter vositalari.

**28. Yosh sportchilarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, mavzu doirasida imkon qadar ko'p muqobil g'oyalarning yig'ilishini ta'minlovchi strategiya qanday nomlanadi?**

A.“Aqliy hujum”\*

B.“Venn diagrammasi”

C.“Nilufar guli”

D.“Baliq skeleti”

**29. Qaysi javobda “Keys-stadi” metodining to'g'ri ta'rifi keltirilgan?**

A.Mashg'ulotlarda aniq muammoli vaziyatlarini bosqichli tahlili, hal qilish va maqbul yechimini topish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish metodi.\*

B.Ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki topshiriqni bajarishga qaratilgan metod

C. Berilgan materialni o'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil o'rganishiga va boshqalarni o'rgatishga yo'naltirilgan metod

D. O'quvchilarda o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash va tekshirish hamda bir-birini baholash imkoniyatini beruvchi metod.

**30. Innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish necha bosqichda kechadi?**

A.4 bosqichda\*

B.2 bosqichda

C.6 bosqichda

D.5 bosqichda

**31. Metodika bilan pedagogik texnologiya tushunchalarini izohi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A.Metodika – o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasi, pedagogik texnologiya – pedagogik muvafaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyixalash – tashkiliy majmuasi;\*

B.Metodika va pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmui;

C.Metodika va pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha rejalar majmui;

D.Metodika – pedagogik muvafaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyixalash – tashkiliy majmuasi, pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha rejalar majmui.

**32. Muammoli vaziyat bu nima?**

A.Psixologik, ziddiyatli vaziyat bo'lib, o'quvchilarni muammoli vaziyat orqali fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi;\*

B.O'quvchilarni muammoli vaziyat holatiga tushirish;

C.Muammoli ta'lim texnologiya;

D.Yosh sportchilarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritishi;

**33. An'aviy ta'limda pedagogik munosabatning qanday turiga asoslanadi?**

A.Avtoritar;\*

B.Demokratik;

C.Insonparvar;

D.Liberal.

**34. Interfaol metodi "Labirint" qanday maqsadlarda qo'llaniladi?**

- A.Nostandart vaziyatlarda ijodiy yo'l topish maqsadida;\*
- B.O'quvchilarni faollashtirish, jadallashtirish maqsadida;
- C.Ijodiy mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida;
- D.Shaxsiy va kasbiy fazilatlarni shakllantirish maqsadida

**35. Innovatsion ta'limda tinglovchi uchun qanday o'rin ajratiladi?**

- A.Mustaqil bajaruvchi;\*
- B.Tinglovchi;
- C.Ob'ekt;
- D.Faol sub'ekt sifatidagi shaxs.

**36. Qanday ta'lim texnologiyasida trener faqat birgina shug'ullanuvchi bilan o'zaro munosabatda bo'ladi?**

- A.Individual ta'lim texnologiyasida; \*
- B.Muammoli ta'lim texnologiyasida;
- C.Jadallashtirish ta'lim texnologiyasida;
- D.Erkin o'qitish texnologiyasida.

**37. Ta'lim jarayonining mohiyatini nima tashkil etadi?**

- A. Bilim, ko'nikma, malaka; \*
- B.O'qish, bilim, rivojlanish;
- C.Bilim, tarbiya, ma'lumot;
- D.Bilim, o'qitish, rivojlanish

**38. Pedagogik texnologiyaning ijtimoiy asosi nima bilan belgilanadi?**

- A.har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi\*
- B.o'quvchilarning turli yoshdagi fiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan iborat.
- C.ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishga doir qonuniy va me'yoriy hujjatlar bilan belgilanadi.
- D.ta'lim- tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat.

**39. Pedagogik texnologiyaning fiziologik asosi nimalardan iborat?**

- A.o'quvchilarning turli yoshdagi fiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan iborat.\*
- B.ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishga doir qonuniy va me'yoriy hujjatlar bilan belgilanadi.
- C.har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi
- D.ta'lim- tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat.

**40. Pedagogik texnologiyadan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?**

- A.yuqori sifat va samaradorlikka erishish\*
- B.ta'limni individuallashtirish
- C.o'qituvchining vazifalarini yengillashtirish
- D.ta'limni tabaqalashtirish va individuallashtirish





## **GLOSSARIY**

**Artikulyasiya** (lot. “articulation” < “articulare” – “aniq talaffuz qilmoq”) nutq organ (a'zo)larining tovush hosil qilishdagi harakatlari holati.

**Baholash madaniyati** – pedagogning u yoki bu pedagogik voqelik, hodisa, jarayonlar bo'yicha ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda to'g'ri xulosa chiqarish, oqilona qaror qabul qilish qobiliyatiga egaligini anglatuvchi sifat.

**Bilish qobiliyati** – o'qituvchining ta'lim jarayonining ishtirokchilari – tinglovchilar, ota-onalar, hamkasblar va ta'lim muassasasining rahbarlari bilan oson muloqotga kirishish, ular bilan munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yishga yordam beradigan individual psixologik xususiyat.

**Diapazon** (yunon. “diapason” – “barcha (torlar) orqali”) – tovush hajmi bo'lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohanglar bilan belgilanadi.

**Diksiya** (lot. “diction” – “talaffuz qilish”) – so'zlarning aniq talaffuz qilinishi.

**Jest** (gavda, qo'l va oyoq harakatlari) – muayyan hodisa yoki ob'ektga nisbatan munosabatning gavda, qo'l va oyoq harakatlari yordamida ifodalanishi.

**Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**Individual rivojlanish dasturi (IRD)** – har bir shaxs yoki mutaxassisning o'zida ma'lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur.

**Innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish.

**Intuitsiya** (lot. “intuition” < “intueri” – “sinchiklab, diqqat bilan qaramoq”) – mantiqiy bog'lanmagan yoki mantiqiy xulosaga kelish uchun etarli bo'lmaganda qidiruv yo'nalishlari asosida masalani echishning tarkibini bo'lgan evrestik (unumli ijodiy fikrlash) jarayoni.

**Informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish.

**Kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirish madaniyati** – pedagog tomonidan mavjud pedagogik bilimlarni puxta o'zlashtirish yo'lida amaliy harakatlarning tashkil etilayotganligini anglatuvchi sifat.

**Kasbiy ziyraklik** – o'quvchilar ruhiy holatlarini, dars, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga bo'lgan ishtiyoqlarini to'g'ri baholash, ularning o'zaro yoki pedagoglar bilan ziddiyatlarini anglash, o'quvchi va guruhga ta'sir ko'rsatishda qulay vaziyatini tanlay bilish.

**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

**Kasbiy-pedagogik burch** – mutaxassis sifatida o'qituvchi tomonidan kasbiy faoliyatda ado etilishi majburiy bo'lgan vazifa.

**Kommunikativ kompetentlik** – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, tinglovchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish,

ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

**Kompetentlik** (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqoridarajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

**Kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

**Kreativlik** (ingl. "create" – yaratish, "creative" – "yaratuvchi", "ijodkor") – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

**Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

**Mahorat** (arab. "mohirlik", "ustalik", "epchillik") – 1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san'at, mohirlik; 2) bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish; 3) muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui.

**Metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash.

**Mimika** (yunon. "mimikos" – "taqlidiy") – yuz muskullari harakatlari orqali shaxsning o'z fikri, his-tuyg'ulari, kayfiyati hamda mavjud voqelikka munosabatini ifodalashi.

**Muloqot jarayonida axborot almashish vositalari** – shaxslararo muloqot jarayonida axborot almashinuvini ta'minlovchi moddiy va nomoddiy narsa, omillar (og'zaki va yozma nutq, paralingvistik va ekstralingvistik tizimlar, muloqotning tashkiliy ko'lam va vaqti, ko'z qarashlar yordamida tashkil etiladigan aloqa, belgilarning optik-kinetik tizimi (mimika, pantomimika, jestlar – gavda, qo'l va oyoq harakatlari))

**Muloqot** – 1) kishilarning o'zaro aloqasi, bir-birlariga ta'sir ko'rsatishlari kishilar o'rtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni; 2) kishilarning bir-birlariga ta'sir ko'rsatishi asosida ular o'rtasida ro'y beradigan axborot almashinuvi.

**Muloqot madaniyati** – 1) muloqot jarayonini axloqiy me'yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik; 2) pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlaridan biri.

**Nafas olish** – 1) organizmga hayot bag'ishlovchi fiziologik funktsiya; 2) nutqning energiya bazasi.

**Nafas olish texnikasi** – fiziologik funktsiya yoki nutqning energiya bazasi sifatida nafas olishda qo'llaniladigan vositalar majmui

**Noyob qobiliyatlar** – shaxsga xos individual psixologik xususiyatning shunday turi bo'lib, u juda kam sonli shaxslardagina kuzatiladi va ko'p

uchraydigan psixologik hodisa sanalmaydi

**Nutq apparati** – nutqni hosil qilishda ishtirok etuvchi organlar.

**Nutqli** (yoki tovushli) **nafas olish** (fonatsion, yunon. “phono” – “tovush”) – nafasning nutq jarayonidagi olinishi

**Nutq madaniyati** – o‘z fikrini nutq yordamida mantiqli, to‘g‘ri, obrazli, aniq va ifodali etkazib berish malakalarining o‘zlashtirilganlik darajasi

**Nutq texnikasi** – nutqni tinglovchi yoki o‘quvchiga etkazishda qo‘llaniladigan vositalar majmui

**Nutq hosil qiluvchi organlar** – nutqni hosil qilish jarayonida ishtirok etuvchi organlar (o‘pka, ikkita bronx, traxeya, kekirdak, bo‘g‘iz, hiqildoq, halqum, tishlar, burun bo‘shlig‘i, lablar)

**Pantomimika** – pedagog tomonidan bayon etilayotgan muayyan fikrni alohida ajratib ko‘rsatishga, ma‘lum qiyofa orqali gavlantirishga imkon beradi gavda, qo‘l va oyoqlarning harakati

**Paralingvistik tizim** (yunon. “pará” – yaqin, nem. “linguistik” – til) – muloqot tarkibida so‘zli, nazariy ma‘lumotlarniso‘zsiz vositalar bilan birgalikda uzatilishi anglatuvchi tizim.

**Pedagogik bilim** – bolalarni o‘qitish va tarbiyalash, ta‘lim hamda tarbiya jarayonini tashkil etish asosida shaxsni har tomonlama kamol toptirishga doir tizimlangan ma‘lumotlar yig‘indisi

**Pedagogik bilimdonlik** – 1) pedagog tomonidan mutaxassislik bilimlarining puxta egallanganligi; pedagogning bilag‘onligi; 2) pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talab, huquqiy me‘yor va standartlarga muvofiq tashkil etishga bo‘lgan qobiliyati, kasbiy tayyorgarlik darajasi

**Pedagogik boshqarish** – pedagogik jarayonlarni tashkiliy-metodik jihatdan uyushtirish (tinglovchilar faoliyatni boshqarish; tinglovchilar jamoasini boshqarish)

**Pedagogik dunyoqarash** – pedagog va ta‘lim oluvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari jarayonining mazmunini, natijalarini belgilovchi dialektik qarashlar va e‘tiqodlar tizimi

**Pedagogik ijod** – pedagogning kasbiy jarayonni samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan yaratuvchanlik faoliyati Pedagogik intuitsiya (lot. “intueri” – “sinchiklab, diqqat bilan qarash”) – pedagog tomonidan pedagogik voqea-hodisaning mohiyatini, o‘quvchi xatti-harakatlari mazmunini tasavvur, empatiya va orttirilgan tajriba asosida his-tuyg‘u, sezgi yordamida, ziyraklik bilan mantiqiy dalillarsiz bevosita anglash

**Pedagogik kreativlik** (lot. “creatio” – “yaratish”) – pedagogning an‘anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta‘lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta‘minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

**Pedagogik loyihalash madaniyati** – pedagog tomonidan o‘zining ichki imkoniyatlari bilan talab, xohish-istaklarni o‘zaro uyg‘unlashtira olgan holda maqsad, vazifalarni to‘g‘ri belgilay olish, pedagogik jarayonni bosqichlar bo‘yicha rejalashtirish, rejani amalga oshirishda zarur vositalarni tanlab bilish malakasi

egalikni tavsiflovchi sifat

**Pedagogik madaniyatga egalikni ifodalovchi sifatlar** – o'qituvchida kasbiy xulq-atvor, odob, muomala va xatti-harakat ko'nikma, malakalar mavjudligini ifodalovchi sifatlar

**Pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlari** – o'qituvchining mutaxassis sifatida kasbiy madaniyati sifatlarini hosil qiluvchi tarkibiy element (unsur)lar (pedagogik loyihalash madaniyati; kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirish madaniyati; pedagogik dunyoqarash; fikrlash madaniyati; his etish madaniyati; baholash madaniyati; muloqot madaniyati; tashkilotchilik qobiliyati)

**Pedagogik madaniyat** – 1) pedagogning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan xulq-atvor, odob, muomala va xatti-harakat ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish darajasi; 2) pedagogning kasbiy vazifalarni hal qilish usul va vositalarini o'zlashtirganlik, pedagogik bilimdonlik, takt, texnika va madaniyatni namoyon qila olishning yuqori darajasi

**Pedagogik majburiyat** – jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga, u tomonidan bir qator pedagogik majburiyatlarning bajarilishiga nisbatan qo'yiladigan talab va axloqiy yo'l-qo'riy, ko'rsatmalar majmuasi.

**Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlari** – o'qituvchilarda namoyon bo'ladigan kasbiy mahorat asosini tashkil etuvchi element (unsur)lar (pedagogik odob, pedagogik bilimdonlik, pedagogik qobiliyat, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik relaksatsiya, kommunikativ ta'sir ko'rsatish qobiliyati, pedagogik takt (nazokat), pedagogik texnika, nutq texnikasi, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tajriba, pedagogik madaniyat)

**Pedagogik mahorat** – 1) o'qituvchining pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish va boshqarish qobiliyati, ko'nikma-malakasiga egaligi; 2) ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondoshuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur; 3) pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar majmui

**Pedagogik muloqot** – pedagogning o'quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiriladigan suhbat

**Pedagogik muloqot madaniyati** – pedagogning o'quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob va muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiriladigan suhbat

**Pedagogik muloqotning avtoritar uslubi** – pedagogik muloqotda o'qituvchining mutloq ustunligini ifodalovchi uslub

**Pedagogik muloqotning demokratik uslubi** – pedagogik muloqotda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligini ifodalovchi uslub

**Pedagogik muloqotning liberal uslubi** – pedagogik muloqotda o'qituvchining e'tiborsizligini ifodalovchi uslub

**Pedagogik muloqot uslublari** – o'qituvchilar tomonidan pedagogik jarayonda ta'lim ishtirokchilari bilan muloqotni tashkil etishda qo'llaniladigan usullar majmui (avtoritar uslub, demokratik uslub, liberal uslub)

**Pedagogning individual rivojlanish dasturi** – pedagogning individual

ravishda o'zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, BKM, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi

**Pedagogik novatorlik** – pedagogik faoliyatda ilg'or tamoyil yoki g'oyani asoslash, yangi yo'l, usul yoki vositalarni tavsiya qilish, ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan ijodiy yondoshuv

**Pedagogik obro'** – pedagogning o'quvchilar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, shuningdek, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy maqomi

**Pedagogik odob** – o'qituvchi oldiga uning o'ziga, kasbiga, jamiyatga, bolalarga va o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatda bo'lishiga nisbatan qo'yiladigan axloqiy talablar tizimi

**Pedagogik relaksatsiya** (lot. "relaxatio" – "zaiflashish", "bo'shshish") – tinglovchilarning hissiy faoliyati, ruhiy-jismoniy quvvati va ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash

**Pedagogik refleksiya** (lot. "reflexio" – "ortga qaytish", "aks etish") – pedagogning shaxs ongi mohiyati va vazifalarini, shu jumladan, qadriyatlarini, qiziqishlari, rag'batlantiruvchi omillar, fikrlash, idrok, qarorlar qabul qilish, hissiy ta'sirlanish, xatti-harakatlari va boshqalarning mohiyatini anglab etishi

**Pedagogik tafakkurning rivojlanish bosqichlari** – pedagog omonidan kasbiy faoliyatni tashkil etish yoki pedagogik yo'nalishda tahsil olayotgan tinglovchilarda ixtisoslik BKMning o'zlashtirilishi bilan bog'liq holda tafakkurning izchil, qadam-baqadam rivojlanib borish davrlari

**Pedagogik tajriba** – kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan o'zlashtirilgan orttirilgan BKM majmui

**Pedagogik takt** (lot. "tactus" – "dahl qilish", "dahldorlik", "his etish", "tuyg'u") – pedagogning o'quvchilar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar hamda hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to'g'ri yondoshish malakalariga egaligi

**Pedagogik tafakkur** – pedagogik jarayon, vaziyat va hodisalar mohiyatining, shuningdek, ular o'rtasidagi muhim bog'lanish va aloqalarning pedagog ongida to'laqonli aks etishi, yangi g'oyalarni ilgari surish, yangiliklar yaratish, shuningdek, pedagogik jarayon, vaziyat va hodisalarning natijalarini bashoratlash; pedagog aqliy faoliyatining yuksak shakli

**Pedagogik texnikaning vositalari** – pedagog tomonidan o'quvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy sifatlariga nisbatan sub'ektiv munosabat, alohida his-tuyg'ularning ma'noli ifodalanishini ta'minlovchi vositalar (nutq va og'zaki bo'lmagan muloqot)

**Pedagogik texnika metodlari** – pedagog tomonidan o'quvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy sifatlariga o'zining sub'ektiv munosabat, alohida his-tuyg'ularni ma'noli ifodalanishini anglatuvchi metodlar

**Pedagogik texnika** – pedagog tomonidan o'zlashtirilgan alohida tinglovchi va tinglovchilar jamoalariga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini amalda samarali qo'llay olish uchun zarur bo'lgan BKM yig'indisi (o'zini o'zi hissiy boshqarish, pantomimika, mimika, jest (gavda, qo'l, oyoq harakatlari), nutq

texnikasi, alohida so'z yoki ifodalarni ifodalash sur'ati (ritmika))

**Pedagogik hamdardlik** (empatiya) – pedagogga xos sifat (tinglovchilar, ota-onalar, hamkasblar va rahbarlarning xatti-harakatlari, hissiyotlari, hayotiy intilishlari, tabiatlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma'qullash asosida jamoadagi munosabatlarni me'yorda tashkil etilishini ta'minlash; o'zgalarning ichki holatini, o'y-fikrlarini va his-tuyg'ularini tushuna olish; boshqalarning boshiga tushgan kulfat, falokatlardan qayg'urish; rollarni qabul qilish – og'ir vaziyatda bo'lgan kishilarning o'rniga o'zini tasavvur, mushohada yordamida qo'yib ko'rgan holda ulardagi ijobiy his-tuyg'ularini qayta tiklashga ko'maklashish; o'zgalarning qayg'u-alamlaridan, kulfatlaridan qayg'urish, ko'ngilni ko'taruvchi, taskin beruvchi so'zlar bilan og'ir vaziyatda qolgan kimsalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish

**Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish** – faqat pedagoglargagina xos bo'lgan qobiliyatlarni yanada boyitish va takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitni yaratish

**Pedagogik qobiliyat** – pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish va olib borilishiga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ahamiyatli bo'lgan pedagogga xos xususiyatlar

**Perseptiv-pedagogik qobiliyatlar** (lot. “perceptio” – o'zlashtirish) – shaxsning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchining psixik holatlarining nozik jihatlarini tushuna olish qobiliyati

**Psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, tinglovchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish

**Relaksopediya** (lot. “relaxation” – “quvvatsizlik”, “zaiflashish”, ruhan yoki jismonan holda toyishni bartaraf etish pedagogikasi) – shaxsda ruhiy va jismoniy toliqishlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat

**Ritmika** – ayrim so'z va bo'g'inlarning aytilish muddati va to'xtalishi, nutq va ifodalarning navbat bilan o'z o'rnida ishlatilishi

**Ritm** (yunon. “rhythmos” < “rjeo” – “oqaman”) – nutqda tovushlarning muayyan izchillik, ketma-ketlikda asosida takrorlanib kelishi, ya'ni nutq vaznini ifodalovchi muhim xususiyat

**Ruhiy barqarorlik** – ruhiy-hissiy holat (ta'sirlanish)larning davomiyligi va barqarorlik darajasi

**Tashkilotchilik qobiliyati** – pedagog tomonidan ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy-nazariy, metodik va hissiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini anglatuvchi sifat

**Tembr** (fr. “timbre” – “qo'ng'iroq”, “belgi”, “tamg'a”, “farqlovchi belgi”) – tovushning tovlanishi (tovush rangdorligi, yorqinligi, yumshoqligi va alohidaligi)ni ifodalovchi xususiyat

**Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish

**Tovushning ixchamligi va harakatchanligi** – nutq hosil qiluvchi organlar

faoliyati asosida hosil bo'lgan tovushning bejirim, yig'inchoq va tebranuvchan ekanligini anglatuvchi xususiyat

**Tovush kuchi** – nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati asosida hosil bo'lgan tovushning quvvati

**Tovush pardozi** – nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati asosida hosil bo'lgan tovushning sayqali, bezagi

**Tovush** – chiqarilgan havoni xiqildoqdan o'tish paytida ovoz pardalarning tebranishi natijasida vujudga keladigan hodisa, sado, sas

**Fikrlash madaniyati** – pedagogning mavjud pedagogik vaziyatlarni inobatga ola bilishi, ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda to'g'ri qarorlar qabul qilishi va ularni amaliyotga samarali tatbiq eta olishini ifodalovchi sifat

**SHaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish

**Ekstralingvistik tizim** (ingl. "exterior" – "tashqarida", nem. "linguistik" – "til") – gapirayotgan shaxsning ijtimoiy vazifalari bilan bevosita bog'liq holda nutqning tashkil etilishi (nutqiy tanaffuslar, kulgu, yo'talish, nafas olish, yig'lash, tutilish va b.)ni ifodalovchi tizim

**Ektremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik

**O'zini o'zi baholash** (O'O'B) – shaxsning o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'ziga baho berishi

**O'z-o'zini rivojlantirish** – shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi

**O'zini o'zi tahlil qilish** – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishi

**O'z ustida ishlash** – shaxs yoki mutaxassis tomonidan o'zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo'lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi

**O'qituvchi nutqi** – pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida til vositalaridan foydalanishi

**Qobiliyat** – shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyat

**His etish madaniyati** – pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlaridan biri bo'lib, u pedagog tomonidan ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, o'y-fikrlarini tushuna olishi, ular bilan samarali muloqotni tashkil etishini bildiradi





## АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // <http://lex.uz/acts/20596>
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-394-son Qonuni // <http://www.lex.uz/docs/2742233>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 6(766)-son. – 70-modda. – B. 25-151.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 23(783)-son. – 455-modda. – B. 47–69.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta’minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 658-son qarori // <http://lex.uz/search/nat?actnum=658>
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-iyuldagi “Davlat ta’lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 542-sonli Qarori // <http://lex.uz/pdfs/3824011>
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-oktabrdagi “Sport maktablarini malakali trener kadrlar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 284-sonli qarori // <http://lex.uz/pdfs/2480191>
9. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019.
10. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.
11. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – 592 b.
12. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.
13. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi

- nutq / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b.
14. Muxamedov O‘.X. Ta’limni tashkil etishda interfaol metodlar: O‘quv-uslubiy tavsiyalar / O‘.X. Muxamedov, M.H. Usmonboeva, S.S. Rustamov. T.: O‘zbekiston Respublikasi IIB Akademiyasi, 2016. – 45 b.
15. Ishmuhamedov R., Mirsolieva M. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. –T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 60 b.
16. Pedagogika. Izohli lug‘at / O‘.Asqarova va b. – Namangan: “Navro‘z”, 2014. – 263 b.
17. Raximov O.D., Turg‘unov O.M., Mustafaev Q.O., Ro‘ziev H.J. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – 200 b.
18. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun darslik.
19. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, D.I. Ro‘zieva, M.H. Usmonboeva. – T.: “Fan” nashriyoti, 2012. – 246 b.
20. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo‘ll. U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, M.H. Usmonboyeva, D.Inog‘omova. – T.: TDPU, 2012. – 193 b.
21. Zaysev V.S. Sovremennie pedagogicheskie texnologii: uchebnoe posobie. – V 2-x knigax. – Kniga 1. – CHelyabinsk, CHGPU, 2012. – 411 s.
22. Hoshimova M.K. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / Ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2012. – 50 b.
23. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘quv-uslubiy qo‘llanma.
24. Innovatsion ta’lim texnologiya seriyasi. – T.: “Iqtisodiyot” nashr., 2011. – 206 b.
25. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar / Ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2009. – 160 b.
26. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008. –164 b.
27. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar / Ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008. – 180 b.
28. Boritko N.M., Solovtsova I.A., Baybakov A.M. Pedagogicheskie texnologii: Uchebnik dlya studentov pedagogicheskix vuzov / Pod red. N.M. Boritko. – Volgograd: Izd-vo VGIPK RO, 2006. – 59 s.
29. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.
30. Zeer E.F., SHaxmatova N. Lichnostno-orientirovannie texnologii professionalnogo razvitiya spetsialista. – Ekaterinburg: EGPI, 1999. – 244 s.
31. Pedagogika / Jismoniy tarbiya institutlari uchun darslik. Rus tilidan tarjima. – T.: O‘qituvchi, 1990. – 296 b.
32. Serova, L.K. Psixologiya lichnosti sportsmena: ucheb.posobie dlya akademicheskogo bakalavriati / L.K.Serova. – 2-e izd., ispr. i dop. – M.: Izdatelstvo YUrayt, 2019. – 124 s.
33. Pedagogika: Uchebnoe posobie dlya studentov pedagogicheskix uchebnix

### **Elektron ta'lim resurslari**

1. <http://edu.uz>
2. <http://huquqburch.uz>
3. <http://lex.uz>
4. <http://senat.uz>
5. <http://stat.uz>
6. <http://uza.uz>
7. <http://uzdjtsu.uz>
8. <http://uz-edu.uz>
9. <http://www.openinfo.uz>
10. <http://ziyonet.uz>
11. <https://minsport.uz>
12. <https://president.uz>
13. <https://sportedu.uz>
14. <https://strategy.uz>
15. <https://www.gov.uz>